


SHOHBOZBEK DOLIMOV

MAQSAD





Shohbozbek Dolimov

MAQSAD

UO'K - 910.4(100)

KBK 26.89(0)

D 69

*Shohbozbek Dolimov. Maqsad. T.: Zamin nashr
nashriyoti, 2019.*

Shohbozbek Dolimov Toshkent shahrida tug'ilgan. Hozirgi yoshi 25-da bo'lganiga qaramay ko'p chet davlatlardagi oliygohlarda ta'lim olishga ulguribdi. Yaponiyadan boshlab to Norvegiyagacha. O'zini boshidan kechirganlarini va ona-yurtdan olisdagi hayotning qiyinchiliklarini «Maqsad» deb nomlangan kitobida avtobiografik shaklda yozgan.

ISBN 978-9943-5892-0-9

«Zamin nashr» nashriyoti, 2019.

Do'st fikri

Ilk bor Shohbozbek Dolimovning ijodi bilan 3 yil oldin tanishgan edim.U paytlar men ham chet davlatda ta'lim olayotgandim.Uyimni juda sog'inganimda Shohbozbekning ijtimoiy ko'rardim.qayta-qayta Shuncha vaqtdan keyin yo'llarimiz kitob sohasida to'qnashib qoladi deb tasavvur ham qilmagandim.Menga Shaxa (uni shunday deb atardim)ning kitobi boshimdan o'tgan voqealarni yana yodimga soldi.Haqiqatdan ham ko'pchilik chetda o'qishni bir katta baxt deb tasavvur qiladi.Chet davlatda alohida kvartirada yakka bir o'zi turib, restoranlarda ovqatlanib, har dam olish kunlari u-bu joyga aylanib dam olib kelib, brand kiyimlarni faslga qarab alishtirib kiyib, o'ziga hech narsa taqiqlamay yashash boshqa, o'qish-ish-uy» uchburchak qafasidan chiqmay, qorni to'yamay, bir xonada bir necha kishi yashab, har doim asabiy bo'lib yashab yurish boshqa.Biroq odamlar bu haqiqatga ishongilari kelmaydi.Qolaversa, bu odam tarmoqdagi videolarini haqiqatni aytgan haqida hech narsaga erisha olmaganda» deb ichida o'ylashadi.O'qishini bitirib, vataniga qaytib.«Bu.o'zi,kelganlarniahmoqqaBugungikundagi turlixil «Falonchi edukeyshn.uz»deganchetdavlatga o'qishga jo'natish bilanshug'ullanayotgan xususiy tashkilotlar ham shu haqiqatni bo'lajak talabalarga tushuntirsa, chakki bo'lmas edi.Lekin afsuski, bu juda katta biznesga aylandi va hamma tashkilotlar ham insof bilan ish yuritayotgani yo'q.esa chiqarishadi.

Aminmanki, "Maqsad" ning hamkasblari va chet elda ta'lim olmoqchi bo'lganlar. Shoxbozbek Dolimovning izohli kitobi o'zbek adabiyotiga «avtobiografiya yozish» yozuvini kiritishi va o'qishi kerak emas. Agar shunday bo'lsa, sizning blogingizga, Shohbozbek Dolimovga birinchi yaxshi blogger, yordam beradigan "avtobiografiyalar chellendje" kabi odamlarga aylanadi. Shoxbozbek Dolimovning yoki Shaxaning keyingi ijodlariga omad tilab qolaman.

«Musofirnoma» romanining muallifi, Temur Malik

KIRISH O'RNIDA

Har kim hayotni o'zicha tasavvur qiladi. Boks ustasi uni ringga, futbol ustasi esa sinov maydoniga solishtiradi. Qaysi birida bo'lmang, muvaffaqiyatga erishish uchun qiyinchiliklar shohsupasidan o'tishingizga to'g'ri keladi. Boks ustasi raqibini yengishga harakat qilsa, futbol ustasi raqiblarini aldab o'tib, darvozaga to'p kiritishga intiladi. Ikki sport turida ham kutilmagan zarbalar va vaziyatlarga duch kelasiz. Ba'zida bularga tayyor bo'lamiz, ba'zida esa yo'q. Men hammasini - zarbalar kelayotganini bila turib, mas'uliyatsizlik qildim. Mas'uliyatsizlik qilganim yetmagandek, hatto zarbalarga tayyorgarlik ham ko'rmadim... Yaponiyadan Osloga (Norvegiya poytaxti) kelganimda nihoyatda tushkunlikka tushib qoldim. Yaponiyada o'qib yurgan kezlrim yaponlar bilan do'stligimiz Yaponiyaga ko'nikib ketishimga ancha yordam bergan edi. Norveglar - umuman boshqa dunyo. Ularning yurtiga muhojir sifatida tashrif buyursangiz, ularning munosabatlari sizga umuman yoqmagandek tuyulishi mumkin. Nega deysizmi? Norveglar notanish inson bilan tezda chiqishib ketaveradigan xalqlardan emas. kamgap, qo'pol tuyulishi mumkin, lekin bu degani notanish insonga nisbatan yomonligi bor degani emas. Oddiygina biror notanish inson bilan do'st tutunish uchun norveglarga ozgina vaqt kerak, xolos.

Menga ham xuddi shunday bo'lgan. Boshida kursdoshlarim bilan do'st tutunishga rosa harakat qildim lekin negadir uddasidan chiqa olmadim. Keyinchalik amin bo'ldimki, bu ularning oddiygina tabiati, xolos. Hozirda juda ham norveg do'stlarim ko'p va ishonasizmi ular bilan do'st bo'lib olganin- gizdan so'ng, norveglar juda sodiq do'st bo'lishadi. Sizni aldamaydi, orqangizdan gapirmaydi va boshqalarni ham gapirishiga yo'l qo'ymaydi, aybingiz- ni shartta yuzingizga aytadi. Lekin bu yerga birinchi marta kelgan men bu narsalarni o'gc'mon qayerdan ham bilay? Shu tufayli magistraturaning boshlang'ich davrida juda yolg'izlanib qoldim. Har kuni o'qishdan so'ng fitnes klubga borishni odat qildim. O'zimni shunday ovuntirmasam bo'lmas edi. Lekin bora-bora o'qish, fitnes klub, uy hayotidan ham zerika boshladim. O'sha paytdagi ovunchoqlarimdan biri - bu YouTube sosial tarmog'i edi. Har kuni uyda YouTube tarmog'iga kirib, o'zim yoqtirgan video bloggerlar hayotini kuzata boshladim. YouTube dunyodagi videolar joylashgan eng katta tarmoq hisoblanadi. Har yili bu tarmoqqa ikki milliardga yaqin foydalanu- chi kirib, video tomosha qiladi. Videolarni yuklab boruvchilar video blogger yoki vloggerlar deb ataladi. Video blogger o'z kanaliga videolar yuklab boradi. Har bir kanalning o'ziga yarasha muxlisi yoki obunachisi bo'ladi. Bu yerda obunachilar bilan muloqot qilish, video ularga yoqqan-yoqmaganligini ko'rib borish mumkin. O'zim yoqtirgan video bloggerlarni hayotini ko'rgan paytlarim hayotimda bo'layotgan muam- molardan yiroqlashgandek bo'lar edim. Ba'zilariga esa juda katta muxlis bo'lib qolgandim. Yaponiyadan kelayotgan vaqt o'zim bilan Canon EOS M3 rusumli kamera xarid qilgan edim. Internetda Norvegiyaning ajoyib tabiatini ko'rib mabodo o'sha yerlarga

borsam, video va rasmlar olaman degan maqsadda. Shu kameram video olishga juda qulay va ba'zida "men ham o'zbek tilida YouTube'ga videolar qo'ysam, odamlarga qiziq bo'larmikan?" degan xayollar bilan yurardim. Xalqimizda "O'ychi o'ylaguncha tavakkalchi ishini bitiradi" degan naql bor. Men ham o'ylab o'tirmasdan 2016-yil 6-noyabr kuni YouTube'da o'z shaxsiy kanalimni ochishga muvaffaq bo'ldim. Xorijiy mamlakatlarga sayohat qilganim tufayli turli davlatlar, xalqlar hayoti, turmush tarzi haqidagi qiziq ma'lumotlarni video shaklida yuklashni boshladim. Tez orada obunachilarim soni 100ga, 1000ga, bora-bora 10 000 nafarga yetdi. Joylayotgan videolarim muxlislarim tomonidan juda ijobiy qabul qilinardi, men esa kunu tun videolar qo'yishda davom etardim. Oilaviy muammolar tufayli yoshligimda menga e'tibor ko'proq buvim va buvam tomonidan kelgan. Ota-onamdan e'tibor deyarli bo'lgaman. Shuninguchunmi bilmadim, virtual hayotdan kelayotgan olqishlar meni butunlay sehrlab qo'ygandek edi. O'qishimga vaqt ajratolmay qoldim. Aniqrog'ini aytsam, Norvegiyaga aslida nima uchun kelganimni ham unutmaganim. Magistraturaga 100 % grant yutib olganim hali ham esimda. Ota-onamning tabassumi, do'stlarimning, hattoki ingliz tili ustozimning havas qilishgani menga bitmas-tuganmas faxr bag'ishlagan edi. Dadam hamma o'g'aynilariga ko'krak kerib, "Meni o'g'lim dunyoning eng nufuzli universitetiga 100 % grant asosida kirdi" deganlarichi. Magistratura ikki yil muddatda bo'lib, mazkur grantning ham o'ziga yara-sha shartlari mavjud edi. Eng muhimi – baholarimni eng kami B (bizdagi 4 bahoga to'g'ri keladi) darajada saqlab qolishim kerak edi. Afsus, unday bo'lmadi. Men YouTube'ni va undagi obunachilarimni afzal ko'rdim. Shunday qilib, birinchi bosqichni juda yomon ko'rsatkich bilan yakunladim, natijada

grantimni boy berib qo'yishim mumkinligiga amin bo'la boshladim. Endi men o'z ehtiyojlarimdan tashqari qo'shimcha 12 ming AQSH dollari topishim kerak edi. Yana hech narsa bo'lmagandek, ta'tilda O'zbekistonga ota-onamni ko'rishga jo'nab ketdim. Men bu haqda bir necha bor ota-onamga aytishga urindim, lekin jur'atim yetmadi. Nima bo'lsa bo'lar deb, Norvegiyaga qaytib keldim. Menda talabalik vizasi mavjud bo'lib, uni har yili yangilab turish kerak. Har yili o'qishda erishgan yutuqlaringiz, olgan baholaringiz va yana bir yil yashash uchun yetarli pul (o'sha payt 13 ming AQSH dollari) borligini isbotlay olsangizgina, vizani yangilab berishardi. Menda esa na yaxshi baho, na erishgan yutuq, na yashash uchun pul va na o'qish puli (o'sha payt 12 ming dollar atrofida) bor edi. Oldimda Xitoy devoridan ham balandroq to'siq turar va bundan narvonsiz o'tishimga to'g'ri kelardi. Men esa muammoni bartaraf qilmasdan undan qochishga urundim... O'zbekistondan qaytganimdan so'ng, grantimni yo'qotdim. Menga vizamni yangilab berilmasligi aniq bo'ldi. Kompyuterimni ochdimda tavakkalqilib, Yaponiyaning Tokiyo shahrida joylashgan Sofiya Universitetiga hujjatlarimni topshirdim. O'qishga kirishimga ishonchim komil bo'lsa-da, lekin muammolarimni hal qilmasdan qochib ketayotgan- dek, ya'ni qo'rqqoqlik qilayotgan edim. Yaponiyaga qayta topshirishimni o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchidan, Yaponiya men uchun "komfort zona" dek edi, ikkinchidan, boshqa davlatga topshirib o'zimga katta "risk" olishni xohlamadim, uchunchi- dan, Yaponoyaga qaytib borsam tezda joylashib, hattoki ish topib ketishimni bilar edim. Mashhur milliarder Dan Penaning bir gapi bor: "Sen menga do'stlaringni ko'rsat va men senga kelajagingni aytib beraman". Norvegiyada men uchun qadrli bo'lib qolgan vatandoshim Bekzod aka istiqomat

qilardilar. Bekzod akaning kasblari ko'z doktori bo'lib, mendan hozirgacha beminnat yordamlarini ayamaganlar. Kasalni shuncha yashir- ganim yetar, Bekzod akaga muammoni aytishga qaror qildim. Bekzod akam o'limdan boshqa hamma narsaning chorasi borligini, Yaponiyani zaxira sifatida saqlab go'yishimni ta'kidlab, oldimda tur- gan muammolarning yechimini topishda yo'l-yo'riq ko'rsatdilar. Bekzod aka to'g'risini yuziga qo'rqmas- dan aytadiganlardan. Bu narsalarni men boshida kalandimog'likdek qabul qilgan edim, lekin hozir bilsam, bu narsalarni menga yaxshi bo'lsin deb ayt- gan ekan. Norvegiyaga kelib erishgan narsalarim- ning ko'piga Bekzod akamning o'rinlari juda katta. Norvegiyada maoshlar boshqa davlatlarga nisbatan ancha yuqori, qattiq ishlab to'lab yuborsa bo'ladiku, deb aytishingiz mumkin. Lekin Norvegiya qonunlariga ko'ra, har bir talaba haftasiga 20 soatdanko'p ishlashi mumkin emas. Bunday narsalarni hukumat juda qattiq nazoratga olgan. Mabodo, 20 soatdan ko'p ishlaganimni bilib qolishsa, meni zudlik bilan davlatdan chiqarib yuborishlari mumkin. Norvegiyada aholining 90 %i karta bilan savdo qilishadi. Oddiygina saqichni ham shu kartangiz bilan xarid qilishingiz mumkin. Qog'oz pul ishlatadiganlar soni juda kamchilikni tashkil qiladi. Nima demoqchiman? Sizga beriladigan oylik hammasi sizning bank raqamingizga tushadi. Sizga oylik tushgan payt hukumat soliqni avtomatik tarzda yechib oladi. Bu degani sizga necha pul topyabsiz va necha soat ishlayabsiz, hamma-hammasi hukumat nazoratida bo'ladi.

Qog'oz pul bilan oylik to'lash birinchidan jinoyat, ikkinchidan bunday korxonalar deyarli yo'q. Shu kunlarning birida, men Nigina degan qiz bilan tanishdim. Niginaning xayolida men Norvegiyaga grant yutib kelgan, o'z kelajagini qurishga tinimsiz harakat

qilayotgan kishi edim. Lekin Yaponiyaga hujjat topshirganim, yaqinda Norvegiyadan ketishim, grantimni yo'qotganim va boshqa gaplardan uning umuman xabari yo'q edi. Negadir bilmadim, shu qizni uchratganimdan so'ng uzoq davom etgan tushkunlikdan asta-sekin chiqa boshladim. Muammolarim hal bo'lmasa-da, ko'nglim xotirjamlashib, kelajakka ishonch paydo bo'layotgan edi. Xalqimizda "kasalni yashirsang, isitmasi oshkor bo'ladi" degan maqol bor.Va nihoyat, bu haqida Nigina bildi va shuncha muammolarni yashirganim uchun mendan juda qattiq xafa bo'ldi. Xayolimdamen endi unga keragi yo'qdek edim, lekin u men bilan bir yoqadan bosh chiqarib kurashishga kirishdi. Eng qizig'i, shuncha muammolarim bo'la turib, uyalmasdan, hech narsa bo'lmagandek YouTubega video joylardim. Sofiya Universitetidan xabar keldi va talabalikka 100 % grant asosida qabul qilinganim va oyiga 1000 dollardan oshiqroq stipendiya berilishini ham aytishdi. Endi oldimda ikki yo'l paydo bo'ldi: Norvegiyada bir amallab o'qish pulimni to'lash yoki zudlik bilan bu davlatdan Yaponiyaga (komfort zonamga) qochish. Qisqa muddatda Niginaga juda ham o'rganib qolgandim. Bekzod akamning gaplari ham xayolimda tinimsiz aylanar, xullas, nima qilishni bilmasdim. Agar bu tarzda muammolardan qochaversam, bora-bora odatga aylanib qolishidan qo'rqardim. Hozir bu muammodan, keyinchalik esa kattarog'idan... "Shunchalar ham kuchsiz bo'lamanmi?" deb ruhiya-tim qiynalardi. Vaqt ham meni ayammasdi, birpasda qish ham keldi. Sofiya borolmasligimni elektron pochta orqali xabar qildim. Oldimda endi yagona yo'l qoldi: nima qilib bo'lsa ham Norvegiyada qolish. Buni taqdir zarbasi deysizmi yoki omadsizlik – Sofiya Universitetiga bormayman degan kunimning ertasiga Norvegiya hukumatidan xat keldi.

Xatda Norvegiyadan mart oyining 14-sigacha chiqib Dekabr oyida Universitetiga ketishim haqida yozilgan ekan. topdik. Advokat Juda yaxshi advokat hukumatdagi xatni ko'rib, hozirgi o'qiyotgan universitetimdan akademik ta'til olib, berilgan muddat ichida chiqib ketishim - o'zimga va kela-

jakda qaytib kela olishim uchun ham yaxshi bo'lishini aytdi. Shunday ham qildim. Mart oyining 14- kuni Norvegiyadan O'zbekistonga uchib ketdim. "Boshingga qilich kelsa ham, rost so'zla", deydi dono xalqimiz. Lekin shunday paytlar bo'larkanki, rost so'zlashga g'urur aslo yo'l qo'ymas ekan. Ota-onamga "O'g'lingiz YouTube'ni va mas'uliyatni his qilmadi deb, tayyor grantini qo'ldan boy berdi, mendek o'g'lingizni kechiring" deymanmi? Jur'atim yetmadi, ota-onamga "Oqishim tugayotganligi tufayli diplom ishini uyda yozaman", deb yolg'on gapirdim. Sodda onam mening gaplarimga ishondi-qoldi. Shunday qilib keyingi olti oy ichida Norvegiya-ga qayta hujjatlar yig'ishni boshlab yubordim. Aksigaolib, eng yaqin Norvegiya elchixonasi Moskva shahrida joylashgan edi. Moskvaga borib kelishim, Toshkentdagi kunlik xarajatlarimni qoplash va viza uchun 600 AQSH dollari bilan hamma yig'ib qo'ygan pullarimni ishlatdim.

Toshkentdaligimda o'zimni ovutish uchun YouTube'ga videolar joylashtirar, turli xil musobaqalar tashkillashtirar edim. Chunki yolg'iz qolishim bilanoq, qilgan xatolarimni eslab, tushkunlikka tushib qolar edim. Shuncha harakatlarim tufayli iyul oyida Norvegiyadan menga talabalik vizasi chiqdi. Bir tomondan xursand, boshqa tomondan esa xavotirda edim. Xavotirimga sabab - endi borib magistraturani tugatishim, qo'shimcha ish topishim va hammasini boshidan boshlashim kerak edi. Kelishimbilanoq

oldingi ishlagan kompaniyaga qo'ng'iroq qilib, qaytib kelganim va mabodo ishchi kerak bo'lsa, ishni davom ettirishimni ma'lum qildim.

Ishim Nespresso kompaniyasida kofe sotish edi. Tez orada boshliq qo'ng'iroq qildi va sentabrdan ish boshlay olishimni aytdi. Ko'nglim ozgina xotirjam- dek edi. Keyingi sinov bu o'qishni tamomlaganimdan keyin, o'z soham bo'yicha ish topishdan iborat. Odatda, bu yerda universitetni tamomlamasdan oldin ish topadigan talabalar juda ham ko'p, lekin bu xalqaro talabalar uchun qiyin jarayon. Nega deysizmi? Norvegiya - juda ham boy davlat. Bu yerda yashashni ko'pchilik orzu qiladi. Shuning uchun ish o'rinlariga bo'lgan raqobat nihoyatda katta. Xalqaro talabaning mahalliy aholi bilan raqobat qila olishi uchun mahalliy tilni bilishi, universitetni tamomlagan baholari yaxshi bo'lishi kerak edi. Menchi? Men na mahalliy tilni bilaman, na universitetdagi baholarim yaxshi. Endi men mahalliy aholi bilan raqobat qila olishim uchun ikki barobar emas, uch-to'rt barobar ko'proq va qattiqroq ishlashim kerak. Dunyoning juda ham ko'p rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ishga qabul qilish jarayo- ni bir xil. Birinchi bosqich, o'zingiz haqida qisqacha ma'lumot yoki ingliz tilida "resume, CV" va bu bilan birgalikda "nega o'sha kompaniyaga ishlamoqchi ekanligingiz" haqida qisqacha insho yozib, elektron tarzda yuborasiz. Ikkinchi bosqich, agar siz o'z yuborgan hujjatlaringiz bilan ularni e'tiborini torta olsangiz, sizni suhbatga chaqirishadi. Shuning uchun birinchi bosqichda "kreativlik" juda ham muhim deb o'ylayman. Suhbat, odatda, o'sha davlatning mahalliy tilida yoki ingliz tilida bo'lib o'tadi. Agar

suhbatdan o'tsangiz, sizni sinab ko'rish uchun sohangizga qarab "test sinovi"dan o'tkazishadi. Hammasidan o'tsangizsizga ish kontraktini yuborishadi. Tasavvur qiling, har bir kompaniya uchun alohida insho yozishni... Meni ishga joylab qo'yadigan dadajonim ham, onajonim ham uzoqda, hammasiga o'z peshona terim bilan erishishim kerak. Ko'p kompaniyalardan rad javobi kela boshladi, bunga asosiy sabablardan biri - mahalliy til, ya'ni norveg tilini bilmasligim edi. Barvaqt turib o'qishga, o'qishdan qo'shimcha ishimga, u yerdan uyga qaytib kelib, kechasi bilan kompaniyalarga xat yozish bilan mashg'ul edim. Kompaniyalardan esa birin-ketin rad javoblari kelardi.

Chet elga chiqib hozirgacha qonunga qarshi ish qilishga urunib ham ko'rmaganman. Sababi bir dona qiladigan nojo'ya harakatim butun boshli kelajagimni barbod qilib yuborishi hech gap emas. Bu mas'uliyatni juda yaxshi his qilar edim. Ishlardan kelayotgan rad javoblari meni juda ham dovdiratib qo'ygan edi. Bir kuni qo'shimcha ishining yonida joylashgan savdo do'koniga shirinliklar xarid qilish uchun kirdim. Sababi, siqilgan paytlarim shirinlik yeyishni juda yaxshi ko'raman. Norvegiya savdo do'konlarida "self service", ya'ni "o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish" joylari mavjud. Navbat kutmasdan, mahsulotlarga o'sha yerda pul to'lab, chiqib ketishingiz mumkin. Chuqur hayollarim tufayli 3-4 shirinlik xarid qilib, 2 tasiga to'lamasdan chiqib ketib qolibman. O'sha yerda meni kuzatib turgan ishchi darrov soqchilarni chaqirdi. Ishchiga, men yonidagi ishxonada ishlashimni, har doim bu yerdan savdo qilishimni qanchalik tushuntirmayin, meni eshitmasdan soqchi chaqirdi. Umrimda birovning haqqiga ko'z olaytirmaganman, bir zumda mas'uliyatsizligim tufayli o'g'riga aylanib qoldim. Nima bu? Taqdir o'yinimi? Xudoning g'azabini

keltiradigan nima ish qilgan edimki, menga bunday sinov bersa?
Agar bu safargi berilgan imkoniyatni ham boy bersam, bilmadim,
endi ota-onamga nima deyman? Shu payt negadir yoshligim
esimga tushdi...

*Agar dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsang,
Avval o'z yotgan joyingni to'g'irlashdan boshla.*
AQSH «NAVY» Admirali, William H. McRaven



IZLAGAN IMKON TOPAR

Bolaligimni xotirlasam: bog'cha muddati tugaganda onam meni Dang'araga - buvijonim va buvajonimning oldilariga jo'natib yubordilar. Buvijonim -odobnoma o'qituvchisi, buvajonim esa haydovchi edilar. Ular meni jonlaridan ham ortiq yaxshi ko'rishar, ularning mehr bulog'idan qonib suv ichardim. Dang'aradan chamasi 5 km uzoqlikda joylashgan 1-sonli maktab internatiga qabul qilindim. O'sha paytlar maktabning o'qitish tizimi va mavqeyi juda yuqori edi. U yerda dushanbadan shanbagacha yotib qolib, o'qir edim.

Hali-hamon esimda, buva- jonim havo xoh sovuq bo'lsin, xoh issiq, 5 km masofaga o'zlarining "Ural" velosipedlarining oldingi o'rindig'iga o'tkazib olib, maktabimga olib borar, shanba kuni esa maktabimdan olib ketar edilar. Rahmatli buvajonim bilan yo'l-yo'lakay juda ajoyib suhbatlar qurar: ba'zida o'qishim, ba'zida oilaviy muammolar va ba'zida ajoyib ibratli hikoyatlar haqida edi. Onam 3-4 oyda bir kelib, bizdan xabar olar edilar. Chamasi 2-sinf edim, onajonim buvajonimga ko'k rangli "Tiko" avtomashinasini sovg'a qildilar.

Shu mashinada biz buvajonim bilan Toshkentga onamni ko'rgani borardik. Shunday qilib, 4-sinfga- cha shu maktabda o'qidim, orada esa onam boshqaoila qurdilar. Yoshligim tufayli, bunday narsalarga unchalik tushunmas edim. "Yangi dada" juda ham jiddiy, gavdali va o'sha paytning boy insonlaridan edi. "Yangi dadam"ning menga munosabati umu- man yoqmas edi. 2001-yil

singlim tug'ildi va o'z- o'zidan hozirgacha menga nisbatan kam bo'lgan "e'tibor" umuman yo'qoldi. Ba'zida bir o'zimni uyda qoldirib, singlim, onam va "yangi dadam" ovqatlangani ketishar edi. Shu paytlar xonamga kirib olib, baqirib yig'laganlarim hali-hamon esimda. Dang'arada 4-sinfni tugatganimdan so'ng, onam meni Toshkentga yangi ochilgan Ichki ishlar vazirligi qoshidagi harbiylashtirilgan Maxsus maktab internatiga topshirib ko'rishimni taklif qildilar. Men esa kuchimni sinab ko'rish uchun imtihonlarga qat- nashdim va maktabga muvaffaqiyatli qabul qilindim. Ne ko'z bilan ko'rayki, bu maktab ham xuddi eski maktabim kabi yotib qolib o'qiydigan maktab ekan.

Men orziqib kutgan damlar keldi, onam bilan yashab, har kuni ularning nafaslariga, mehrlariga to'yaman desam, afsuski, yana onamdan uzoqda yashashga majbur bo'ldim. Harbiy maktab menda erkak kishi uchun kerakli juda ko'p xislatlarni rivojlantirdi. Har kuni barvaqt turib, maktabni chinnidek tozalar edik. Bu bilan har bir inson o'zi yashayotgan joyiga hurmat bilan qarash kerakligini o'rgandim, shuningdek, bu odat menga vaqtida uyg'onish, vaqtida ovqatlanish va vaqtida uxlash, umuman, qat'iylikni o'rgatdi. Oltmish kishilik yotoqxonada - "kazarma"da yotib, "hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun" ligini ko'rdim.

Har kuni yotishdan oldin maydonda safda turib, "Qurolli Kuchlar Nizomi"ni eshitar edik. Bu esa vatanim qo'riqchisi bo'lishim uchun kuchli shijoat uyg'otardi. 9-sinf oxirida negadir harbiylikka bo'lgan qiziqishim ozgina so'ndi.

Onam Harbiy litseyga hujjatlarimni topshirishimni maslahat qildilar, men esa harbiylikka bo'lgan qiziqishim biroz so'nganligini va o'zimni boshqa sohada sinab ko'rishimni tushun- tirmoqchi

bo'ldim. Afsuski, onam meni tushunishni ham, eshitishni ham xohlamadilar. Bu esa onam bilan o'rtamizga katta nifoq soldi. Doim onamdan uzoqda yashaganim uchunmi bilmadim, onam bilan til topishish xuddi sahrodan igna qidirishdek edi.





ASAKA

Onam bilan munosabatlarimiz bundan ortiq yomonlashishini xohlamadim va Asakaga dadamning oldilariga jo'nab ketdim. Dadam ham bu yillar ichida boshqa oila qurishga ulgurgan edilar. Dadam tabiatan juda hazilkash va ajoyib inson. Yangi oilalari tufayli menga ko'p vaqt ajrata olmaganlar, lekin meni jonlaridan ortiq yaxshi ko'radilar. Har doim "Sen meni kattam, polvonimsan", derdilar. Dadamning uch nafar farzandlari, ya'ni ukalarim bor. Hammasi bo'lib, to'rt bolaning akasiman. Asakadagi eng boshladim. Litseyning eng qattiqqo'l ustoz, rahmatli Xosiyat opaning guruhida o'qidim. Ustozim tarix fanlari doktori bo'lmasalar-da, uncha-muncha doktorlar bilan bemalol tenglasha olardilar. Qo'llaridan qancha-qancha olimpiada g'oliblari va tarix ustozlar yetishib chiqqan. Ustozim tufayli jahon va vatanim tarixiga bo'lgan qiziqishim kuchaydi. Tarixni sevib o'qishni boshladim, hattoki, Andijon shahrida o'tkazilgan olimpiadaga chiqdim, lekin "og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning bolasi gapirsin" deganlaridek, bir ota-onasi badavlat insonning farzandi g'oliblikka ega chiqdi. nufuzli litseyda o'qishni Xoh siz jarroh bo'ling, xoh siz duradgor, har birimiz vatanimiz tarixini bilishimiz kerak. Bu orqali ajdodlarimiz bizga qoldirib ketgan ajoyib makonni yanada ravnaq topishi uchun muttasil harakat qilishimizga, boshqa millat vakillariga batafsil gapirib berishimizga va kim ekanligimizni yanada chuqurroq anglashimizga turtki bo'ladi. Dadam boshqa oila qurganlarigami, bilmadim nega, lekin Asakadagi uyda yashashni xohlamadim va litseyning yotoqxonasida joylashdim. Onam har oyda jo'natib turadigan pul ovqatlanishimga zo'rg'a yetar, dadamning esa har doim ham sharoitlari bo'lmas edi. "Yarim

mustaqil" hayotim xuddi shu yerdan boshlandi. Kursdoshlarim har kuni uydan qatnab o'qishar, toza kiyim kiyishar va litsey oshxonasida ovqatlanishar edi. Har kuni litsey oshxonasida ovqatlanishga to'g'risi cho'ntak ko'tarmas edi. Shuning uchun ba'zida bir bo'lak "uy noni" olib, hech kim ko'rmaydigan joyda yeb olar edim. Uy noni qayerdan deysizmi? Yotoqxonadagi xonadoshim Andijonning Xo'jaobod tumanidan kelgan bola edi. Juda ham ziyoli va badavlat oilaning farzandi edi. Har safar uyidan qaytgan paytlar, onasi tandirda yopilgan non, uzum va boshqa narsalar berib yuborar va ularni xonadoshim doim men bilan bo'lishar edi. Yotoqxonada bo'lib o'tgan bir ajoyib voqeani sizlar bilan ulashsam. Katta kursda o'qiydigan talabalar, yotoqxonani armiya singari qilib olish- ganidan umuman xabarim yo'q edi. Bir kuni kechasi kimdir eshigimni qattiq taqillatdi. Cho'chib uyg'onib ketib, "Kim?" desam, "Tashqariga 5 daqiqada chiqib saflanmasang yomon bo'ladi" degan ovoz keldi. Tushimmi yoki o'ngimligini bilmay qoldim. Garangsirab xonadoshimni uyg'otib tashqariga chiqdik. Chiqsak, katta kursda o'qiydigan bir bola yotoqxonada yashaydigan kichik kurs talabalarni yig'ib olib, suhbat o'tkazayapti. Xonadoshim bilan bizham kirdik. Kechga qolganimiz uchun bizdan 50 mar- ta "o'tirib-turish mashqini" bajarishimizni buyurdi. Xonadoshim bilan kulib yubordik va bu holat katta kursdagilarga yoqmadi. Litseyimiz yonidan katta ariq o'tgan edi, xuddi shu ariqning narigi tarafida xolamning o'g'illari yashar edi. Darrovda qo'ng'iroq qilib, bu vaziyatni tushuntirdim. Akalarim 5 kishi bo'lib yetib kelishdi. Buni ko'rgan katta kursdagilar akamga bu holat boshqa qaytarilmasligini qayta- qayta tushuntirishdi. Shu bilan yotoqxonadagi "armiya"ga chek qo'yildi. Yotoqxonada yashab yurgan kezarim yana bir ajoyib inson – Sirojiddin akam

bilan tanishdim. Uylari yotoqxonamizdan besh daqiqa uzoqda joylashganiga qaramasdan yotoqxonada yashar edi. Buning sababi uylarida odam sonining ko'pligi va oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun tayyorgarlikka tinch joy talab qilishi edi. Siroj akam ingliz tilini juda ham yaxshi bilar va ko'pchiligimiz u kishiga havas qilar edik. O'sha paytlar chet elga o'qishga ketish degan tushuncha ancha ommalashgan. Ko'p yoshlar chet elga ketish uchun har xil o'quv markazlariga borib, ingliz tilini mukammal o'rganishni boshlashdi. Litseyimizga dunyoning nufuzli universitetlaridan talabalar kelib, o'zlari ta'lim olayotgan universitet va davlat haqida prezentatsiyalar qilishar edi. Ularning o'zini tutishi, borgan davlatlari va universitetlarini ko'rib, odamning havasi kelar edi. Shular tufaylimi, menda ham chet elga borib o'qish havasi paydo bo'ldi. Chet elga chiqib, o'qish istagi bo'lgan har bir odam o'sha davlat tili yoki dunyo tili bo'lmish ingliz tilini mukammal bilishi zarur.

Siroj akam Andijondagi eng nufuzli o'quv markazlaridan biri - "Taraqqiyot markazi"ga ingliz tilini o'rgangani borar edilar. Eshtishimcha, bu yerdan juda ko'p iste'dodli bolalar yetishib chiqqan. Bu markazning eski nomi - "Andijan Development Center". Sababi - bu markazga amerikaliklar asos solishgan. 2005-yilda markazni Gennadiy Morozov, biz esa o'zbekchasiga Gena aka deb ataydigan inson boshqaruvni o'z qo'llariga olganlar. Siroj akamdan meni ham o'sha o'quv markaziga olib borishini, menda ham ingliz tili o'rganishga ishtiyoqim paydo bo'lganini aytdim. Bilimimni tekshirish uchun boshliq (Gena aka)ni o'zi suhbat qildi. Gena akaning xonalari turli xil mamlakatlardan keltirilgan sovg'alar bilan to'la edi. Xonalarining bir chetida katta divan bor edi. Shuni ko'rsatib, "Bu inglizchada qanday ataladi?" deb so'radilar. Men esa

"sofa", ya'ni divan o'rniga, "armchair", ya'ni kreslo dedim. Kerak bo'lsa, "shunaqa katta kreslo ham bo'ladi" deb, Gena akani ishontirishga ham urindim. Urinishlarim zoye ketdi, bilim olishni "beginner", ya'ni boshlang'ich darajadan boshlashimni taklif qildilar.





ANDIJON

*Kuchsizlar orasida eng kuchlisi bo'lgandan ko'ra,
kuchlilar orasida eng kuchsizi bo'lgan afzalroq.*

Ingliz tili kursiga haftada uch marta borardim. Asakadan Andijonga Damas qatnardi. Damas-Andijon- ning eng sevimli avtoulavi. Hattoki, kosmosdan ham Andijonda yurgan damaslarni ko'rishingiz mumkin. Damasda qatnash zo'r, lekin unga ketayotgan xarajat zo'r emasdi. Shuning uchun onam bilan maslahatlashib, meni Asakadan Andijondagi biror-bir litseyga ko'chirishini iltimos qildim. Yangi litseyga tezda joylashib oldim.

Rahbarimiz litseyga oq ko'ylak va qora shimda kelishimni ta'kidladilar. Litseyning birinchi kunidanoq xuddi to'yga kelgan odamdek kostyum-shimda keldim, naqshli qizil galstukni aytmasa ham bo'ladi. Litseyga kirib borarkanman, kimdir ola qarash va yana kimdir kulib o'tib ketar edi. Sababi, o'sha kuni kostyum-shim kiygan yagona talaba men edim. Yangi litseyimga boshqa litsey talabalari "modalar uyi" deb laqab berishgan.

Nega deysizmi? Sababi bu yerda faqatgina qizlar emas, balki yigitlar ham kim o'zarga "modniy" kiyinishga musobaqalashishar ekan. Ba'zida boshqa litsey talabalarini uchratib qolsam, falon litseydanman deyishga ozgina iymanar edim.

Xolamning o'g'li bor, yoshlikdan men bilan Dang'arada katta bo'lgan akam. Harbiy sohaga ishga kirganlar. Hamma akamga havas qilar edi. Baxtinga akamning ishlari Andijonga ko'chdi va akam Andijon- ning Bo'ston deb nomlangan qismidan ijaraga uy oldilar. O'sha yerda akam bilan birga yashay boshladim. Muammolarim ancha kamaydi. Akam har kuni uyga bozorlik qilib kelar, men esa "oshpaz" edim. Hozir sharoit ancha yaxshilangan, lekin o'sha paytlar Andijonning markazida elektr va gaz muammo edi. Endi Andijonning chekkarog'ida joylashgan Bo'stonni o'zingiz tasavvur qilavering. Xudoga ming shukurlar bo'lsinki, suvdan muammo yo'q edi. Uyga suv isitadigan uskuna qo'ymoqchi edik, lekin akam o'z ishlari bilan juda ham mashg'ul bo'lib, boshida olti oy shu uskunasiz yashadik.

Toshkentda yashab, har kuni ertalab cho'milishga o'rganib qolganman, shekilli, Asakada ham, Andijonda ham issiq suv muammosiga hech ko'nika olmadim. Har kuni erta turishga to'g'ri kelar, sababi ertalab hech kim gazdan foydalanmas va gaz balandroq yonardi, bu esa menga gazda suv isitib olishga imkon berardi. Isigan suvni hammomda turgan tog'oradagi muzdek suv bilan aralashtirib, cho'michda olib, yuvinar edim. ingliz "intermediate", ya'ni o'rtacha darajaga yetib qoldi. Ustozim Aziz aka "Taraqqiyot markazi"da birinchi marotaba "debate course", ya'ni munozara kursi ochishini, uning davomiyli ikki oy va bu kurs qayta ochilishi noma'lum ekanligini ta'kidlab, e'lon berdi. Ingliz tilida bahslashuvlar juda qiziq bo'lib, kuchli bolalarga doim havas ko'zi bilan qarar edim. Bu kurs "upper intermediate", ya'ni yuqori-o'rta darajada vaqtlarda Shu tilidan darajam biluvchi o'quvchilar uchun edi. Menda esa bunga yetarli na daraja, na yetarli pul bor edi. Onamdan yordam so'ragani qo'rqardim, dadamning esa

boshqa oilalari borligi tufayli muammolarimga ko'milib qolishlarini istamasdim. "Izlagan imkon topadi", bu iborani siz ham o'z hayotingizda qo'llab ko'rishingizni tavsiya qilgan bo'lar edim. Shunday qilib, shartta Gena akaning xonalariga kirib, na pulim, na yetarli darajam borligini aytdim va menga yordam qilsalar, qachondir, albatta, qaytarishimni tushuntirdim. Gena aka mendagi shijoatni ko'rib, kursga o'z yonidan pul to'lab berishlarini aytdilar. Haqiqatdan ham kuchlilar bilan o'qishim endilikda kuniga 4 soat emas, balki 6, 7, 8 soatlab o'qishimga undadi. Bahslashuv kursimiz tugab, "speaking", ya'ni gapirishimdagi o'zgarishlardan atrofdagi do'stlarim hayron qolishdi. Gena aka ham menda bo'lgan o'zgarishni ko'rib, pulni qaytarib bermasam ham bo'lishini ta'kidladilar.

Tesla, PayPal va bir qancha innovatsion g'oyalar asoschisi Ilon Maskning bir ajoyib gapi bor: "Siz hammaga o'xshab 4 soat emas, balki 8 soat ishleng, hamma maqsadiga 1 yilda erishsa, siz xuddi shu maqsadga 6 oyda erishasiz". Ingliz tilini tez fursatda o'zlashtirmoqchi bo'lsangiz, butun vujudingiz bilan o'rganing. Butun vujudingiz deganda, faqatgina til o'rganish marka- zida 1,5 soat dars tinglash tushunilmaydi. Har daqiqadan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Men har kuni darsdan chiqib, kutubxonaga kirib ketar edim. Kutubxonada o'sha kungi darsda o'tilganlarni yaxshilab takrorlab, keyingi darsga ham oldindan tayyorgarlik ko'rar edim. Qolgan vaqtimni o'z darajamga mos kitoblar o'qishni va boshqa talabalar bilan ingliz tilida rurli xil kinolarni ko'rish bilan o'tkazardim. Bu esa do'stlarimga nisbatan tilni ancha tez o'rganishimga sabab bo'lgan.

Hattoki, bozordan biror narsa xarid qilish jarayonida ham pulimni ingliz tilida sanab berar edim.





YAPONIYA

Ingliz tilini o'rganganim sari chet elda o'qishga borishishtiyoqi yanada ortib borardi. Ammo akam bilan yashab, u erishayotgan yutuqlarni ko'rib, harbiylikka bo'lgan qiziqishim yana uyg'ongandek bo'ldi va xuddi akamdek men ham harbiy bo'lib ishlash ishtiyoqi tug'ildi. 3-bosqichga o'tganimda, litseyimizga Milliy Xavfsizlik Xizmatidan xodimlar kelishdi. O'zimni sinab ko'rish uchun tezda hujjatlarimni yig'ishni boshlab yubordim. Harbiy maktabda juda ko'p narsalarni o'rganganim uchun o'z kuchimga juda ham ishonardim. MXXga birinchi suhbat bo'ldi va keyingi bosqich, ya'ni tibbiy ko'rikdan o'tdim. Tibbiy ko'rik sizga oddiy eshitilishi mumkin, lekin MXX tibbiy ko'rigi eng qiyin jarayonlardan biri hisoblanadi. Hamma hujjatlarni bir hafta deganda u shifoxonadan bu shifoxonaga qatnab, zo'rg'a to'pladim. Doimiy turar jayim Toshkent shahrida bo'lganligi tufayli, Andijon shifoxonalari Toshkentdan hujjat so'rab "qon" qilishdi. Tibbiy ko'rikdan sog'lom o'tishim menga jismoniy tarbiyadan imtihonga yo'l ochib berdi. Bizga tayyorgarlik uchun bir oy vaqt berishdi va akam bilan imtihonga tayyorgarlik ko'rishni boshlab yubordim. Harbiy maktabda olgan jismoniy bilimlar juda qo'l keldi va imtihonni a'lo darajada topshirdim. Har so'ng bir bosqichdan muvaffaqiyatli topshirilmaganlarning ism-familiyasi imtihonni e'lon qilinib, harbiy xizmatni o'tab, yana qayta hujjat topshirishi bo'yicha ko'rsatma berilar va jo'natib yuborishardi. Jismoniy imtihondan keyin ham xuddi shunday hol yuz berdi. Bolalar safni birin-ketin tark eta boshlashdi, mening

ismim aniq chiqmaydi, chunki hammasidan a'lo darajada o'tdim, deb o'zimga qattiq ishonch bilan qaddimni tik turardim.



To'satdan oxirida Dolimov Shohbozbek deb chaqirib qolishdi, o'sha daqiqada sodir bo'lgan ichimdagi g'alayon faqatgina Hudoga va menga ayon. Go'yoki muzdek suv ichdim-u, shu suv butun tanamni bir muddatga muzlatib quygandek bo'ldi. Ko'zimdan duduv yosh oqar, turli xil savollarga javob axtarardim. Keyin bilsam, qabul qilinmaganimga sabab, rahmatli buvajonimning sudlanganligi ekan. Hudoga shukur, hozir bu qarorlar bekor qilingan. Xuddi menga o'xshab yiqilganlar son mingta. Nega endi o'z vatani uchun jonini fido qilishga, ona yurt osoyishtaligi uchun o'z tinchligidan kechishga, kechalari uxlamay, vatan tuprog'ini himoya qilishga tayyor yigitni rahmatli buvasining sudlanganligi tufayli yiqitishadi? O'sha kun o'zimga o'zim, nafaqat harbiy sohadan, balki boshqa davlat sohalaridan uzoqroq yurishga so'z berdim. Shundan keyin xorijiy davlatlarning universitetlariga o'qishga kirish uchun imtihonlarga tayyorgarlik ko'ra boshladim. Til markazimizga Yaponiyaning Beppu shahrida joylashgan Ritsumeikan Osiyo Tinchlik Universitetidan bir talaba kelgani va markazimizda o'zi o'qiyotgan universitet haqida taqdimot qilishi e'lon qilindi. Men ham qiziqib, o'sha prezentatsiyada qatnashdim. Universitetda tahsil olayotgan olti ming o'quvchining yarmi xalqaro, qolganlarini esa yaponlar tashkil qilar ekan. To'qsondan ortiq mamlakatdan talabalar lib o'qishini. talabalik hayotining qanchalik rang-barang ekanligini ko'rib, rosa havas qildim. Prezentatsiya tugagandan so'ng savollarimni o'sha talabadan so'rab, bilib oldim. U yigitning ismi Farrux bo'lib, meni Yaponiyada o'qishga qiziqtirgan birinchi akam Universitetiga tayyorgarlikni boshlab yubordim. va yagona inson. Farrux Ritsumeikan tufayli Osiyo Tinchlik Universitetga turli xil hujjatlar to'planib, ularni pochta orqali yuborish kerak edi. Hujjatlarning eng asosiylari - 6 ta

insho (hozirda 4 ta), litseydagi baholar va IELTS (Ingliz tilidan xalqaro test sinovi) natijalari edi. Hammasidan insho eng murakkab jarayon ekan. Insho yozishga roppa-rosa bir oy vaqtimiz ketdi. Insholarimni ustozim Saydullo aka bilan yozganman. Insholarimni tekshirib, talab asosida tayyorlanishida Saydullo akamning o'rinlari benihoya katta. Insholarimni tugatib, yaxshi niyatda hamma hujjatlarimni Yaponiyaga jo'natib yubordim. Bir muncha vaqt o'tgandan keyin telefonda suhbatga chaqirishdi va suhbat juda ham ajoyib o'tdi. Bahslashuv kursida o'qib o'rganganlarim suhbatimda juda qo'l keldi. Universitetning bir yillik kontrakt puli 15 ming AQSH dollari edi. Insholardan va suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga shu miqdorni foizlar (35 %, 50 %, 65 %, 80 % va 100 %) orqali kamaytirib, grant yutib olish imkoniyati bor edi. Men esa 80 % yoki 100 % grant yutsamgina, ketishga sharoitim borligini bilar edim. Tilning suyagi yo'qligami bilmadim-u, barcha do'stlarimga Yaponiyaga hujjat topshirganimni va tez orada javob kelishini aytib qo'ydim. Shundan so'ng, ko'p do'stlarim natijani bilish uchun har hafta qo'ng'iroq qilishni boshlashdi. Menda esa hech qanday javob yo'q edi. Bir kuni do'stimga grant yutganimni va Yaponiyaga ketaman, deb aldab qo'ydim. Gap tez tarqaydi deganlari rost ekan, birpasda barcha sinfdoshlarim qo'ng'iroq qilib, tabriklay boshlashdi. Universitetdan esa hanuz xabar yo'q. onam qo'ng'iroq qilib, Kunlarning birida Yaponiyadan xat kelganini aytib qoldilar. Onam ingliz tilini tushunmaganliklari tufayli, xatni ochib, ichidan % (foiz) belgisini qidirishni va undan oldin qanday raqam borligini so'radim. Onam "80 %" deganlarini bilaman, ich-ichimdan baqirib, yangi tug'ilgan qo'zichoqday sakray boshladim. Bu xabarni tezroq Gena akaga va markazdagi do'stlarimga aytgim kelardi,

xursandchiligim ichimga sig'may ketganidan qanday yuvinganim-u sovuq suvda birmuncha turib qolganimni ham, kiyinib uydan chiqib ketganimni ham bilmayman. Bu xabarni eshitgan Gena aka ko'zlarida yosh bilan menday o'quvchisi borligidan qanchalik faxrlanishini to'lqinlanib gapirdi. Keyingi ishalarimga omad tiladi. Shuning bilan Yaponiyaga tayyorgarlik boshlandi. 2016-yil 16-sentabr kuni men va yana ikki nafar do'stim Yaponiyaga uchib ketdik.

Izlagan imkon topar...



BIRINCHI MARTA

YIG'LADIM

Eng go'zal narsa borliqdir, chunki uni Taneri yaratgan. Eng cheksiz narsa ham borliqdir, u hamme narsani sig'diradi. Eng uchqur fikrdir, chunki uni hech nima to'xtatolmaydi. Eng dono narsa vaqtdir, yolg'iz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi.

Miletik Fales

O'zbekistondaligimda, mabodo, universitetiga o'qishga kirsam, o'zim yoqtirgan musiqani qo'yib, dengiz bo'yida kelajagim haqida xayollar suraman, deb niyat qilgan edim. Va nihoyat o'sha kun keldi. O'qishdan chiqib ishga bordim...

Mehmonxonamizga har kuni 200-300 ga yaqin mehmon tashrif buyurardi. Yaponlar bizga o'xshab, katta idishlarda ovqatlanmaydi. Patnistda 5-6 ta kichik idishchalarda ovqat tortilardi. 200- 300 ta odamdan nechta idish-tovoq chiqishini tasavvur qilavering. Ha, bir patnistda "take", ya'ni bambukdan yasalgan idishi bo'lib, unda salat tortilardi. Bambukni issiq suvda yoki idish yuvadigan mashinada yuvishning iloji yo'q edi, sababi bambuk issig suvda shishib ketib, sifatini yo'qotar ekan. Shuning uchun har kuni 200-300 bambuk idishlarni sovuq suvda yuvarдим. Qo'llarim sovuq qotib, ba'zida barmoqlarimni anchagacha sezmay qolardim.

Har kuni ishdan chiqib, qo'limni isitish uchun kechda ham ishlaydigan do'konlarga kirib, issiq choy olib, qo'lim isigunga qadar do'konniaylanib chiqardim. Oo'lim isib olgandan so'ng, qo'limdagi choyni joyiga go'yib. yangisiniolardim va yotoqxonagacha ichibketar odim. Mehmonxonamiz dengiz bo'yida joylashgan edi. Bir kuni ishdan chiqib, dengiz bo'yida o'tirib, ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Onamga qo'ng'iroq qilib, boshqa chiday olmasligimni, O'zbekistonga qaytgim kelayotganini aytdim. Onam hamn xohlagan paytimda qaytishim mumkinligini va O'zbekistonning biror-bir universitetiga kirib o'qishim mumkinligini aytdilar. O'sha kuni kechqurun Yaponiyadan ketish qarorimni Abdurahmon akamga aytgan edim, jahllari chiqib ketdi. Bu yerlarga kelib o'qish ba'zilar uchun orzu ekanligini, kelgunimga qadar sarflangan xarajatlar bir pul bo'lishi va asosiysi hamma narsani sabr bilan yengib o'tishim mumkinligini tushuntirdilar.

Hali-hamon esimda. O'qishga grant yutib olgan kuni dadajonim xuddi yosh bola kabi xursand bo'lib, choyxonada do'stlariga rosa maqtangan edilar. Onam ham xuddi shunday. Endi O'zbekistonga qaytib borsam, ularning oldida kim degan Shuning uchun bu xayolni boshqa o'ylamasdan, yana o'sha bambuk idishlarni yuva boshladim. birga o'tiradigan odam bo'laman? Yigit kishi yig'lamaydi degan gapni ko'p eshitib qolamiz. Lekin shunaqa paytlar bo'ladiki, yig'lab yoki qattiq baqirib, ichimizdagi yomon narsalarni tashqariga chiqarib tashlashga majbur bo'lamiz. Shunday paytlarda sizni hech kim topa olmaydigan yoki eshitmaydigan bir joy topib maza qilib, yig'lab oling. Ancha yordam beradi...

YOTOQXONADAN KO'CHIB

KETDIK

Yotoqxonamiz juda qulay va hamma imkoniyatlar yetarli, lekin narxi men uchun juda qimmatlik gildi Shuning uchun do'stim Islom va Sulton bilan shaharga ko'chib ketishga qaror qildik. Yotoqxona bir kishi uchun \$400 bo'lsa, shahardagi ikki xonali uyimiz \$500 AQSH dollari edi. Men hamda do'stlarim o'zimiz ishlaydigan hududga yaqinroq joydan uy topdik va ko'chib ketdik. Oylik harajatlarim ancha kamaydi, lekin tanganing ikkinchi tomonini o'ylab ko'rmagan ekanman. Hammamizning ish, o'qish tartibimiz har xil bo'lganligi tufayli kimdir uyga vaqtli, kimdir esa kech kelardi. Ko'pincha men ishdan vaqtli kelib, ovqatimni pishirib, yotib uxlar edim. Lekin do'stlarim ishdan juda kech qaytib, ovqatlanib, uyquga yotgunlaricha allamahol bo'lardi. Bu esa, albatta, mening dam olishimga yomon ta'sir qilar va ertasi kuni yaxshi uxlay olmaganligimdan kun bo'yi uyqusirab yurar edim. Ikkinchi chorakning boshida yapon tilini endi boshlang'ich darajasini tugatdim, ammo yapon tilim hali-hanuz idish-tovoq yuvadigan ishdan boshqasiga yetmas edi. Yana qo'shimcha ish topmasam, o'qish pulini to'lashga qurbim yetmay qolishini tushundim va o'zim ishlayotgan mehmonxonaning qarshisidagi boshqa mehmonxonadan idish-tovoq yuvish uchun ish topdim. Endi bir emas, ikki joyda idish-tovoq yuvishni boshladim. Universitetimning 1-bosqichi ish topish, o'qish, siqilish, uyga qaytib ketmoqchi bo'lish, puldor talabalarga havas qilish bilan

o'tib ketdi. Chet el universitetlariga talabalikka qabul gilinsangiz, birinchi yil juda ko'p muammolarga duch kelasiz. Yuqoridagi holatlar aksariyat xorijda o'qiyotgan talabalarning hayotida yuz beradi. Shu bois quyidagi tavsiyalarni berardim: o'zingizga yaxshi ish topib olguningizga qadar, do'stlaringiz bilan ijaraga uy oling. Shunda ishlab topgan pulingiz barakali bo'ladi. Agar yotoqxonada va yeb-ichishimga pul qolardi, xolos. Kiyinish, do'stlar bilan ba'zan sayohatga chiqish, umuman, kutilmagan uyimga qolganimda hollar uchun pulim bo'lmasdi.



HAMMASI YAXSHI BO'LADI

Xalqimizning oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug', degan hikmatli so'zi bor. Ba'zida qiyinchilik ortidan qiyinchilik kelaverishi ruhan insonni sindirib qo'yishi mumkin. Doim tayyoriga o'rganib qolganim uchun hayotimda yuz berayotgan mushkulotlar esankiratib qo'ygandi. Chet elga o'qishga kelishim men uchun katta maktab bo'ldi. "Bolam, nonushtaga nima qilib beray", "Tura qoling. nonushta tayyor bo'ldi", "Kir kiyimlaringiz bo'lsa, yuvib beraman", deydigan na onam, na buvim va na singlim bor edi. Mustaqil hayotning bu qadar qiyin kechishi yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi. Andijonda uydagilarimdan uzoqda yashab, narsani lekin bo'lsam-da, ancha biror muammo bo'lsa, darrov taksiga o'tirib, Toshkentga yoki Qo'qonga yetib olishim mumkin edi. Lekin Yaponiyada muammoga duch kelsam, darrov samolyotga o'tirib, ketib bo'lmas, yetib olgan taqdirda ham, chiptaga pulim yo'q edi. Bu holatlarga bir yildan so'ng ko'nika boshladim. o'rgangan Endi vaqtimni faqatgina ish va o'qishga emas, balki yangi-yangi do'stlar orttirishga, ular bilan ko'proq vaqt o'tkazishga, ularning madaniyatini o'rganishga va shu bilan birgalikda o'zimizning buyuk tariximizni ularga o'rgatishga harakat qilar edim. O'sha payt yoshlik qilib O'zbekistonga qaytib ketganimda nima bo'lardi, bilmayman? SABR qilish orqali hammasi yaxshi bo'la boshladi.



ENDI IDISH-TOVOQ

YUVMAYMAN

Yapon tilini o'rganmas ekanman, universitetni bitirgunimga qadar idish-tovoq yuvishim aniq edi. Odatda, ishxonaga borib, deyarli hech kim bilan muloqot qilmasdan qaytardim. Yapon tilini oz bilishimga qaramasdan, gapirib xato qilishdan qo'rqardim. Bir kuni yapon tili ustozim, yapon tilida yaxshi gapirmoqchi bo'lsangiz, xato bo'lsa-da gapiring dedilar. Ishxonada to'rt nafar oshpaz bor. O'sha kuni kechqurun ishga bordim va ulardan men bilan tez-tez suhbat qurishlarini iltimos qildim. Shu kundan boshlab, har soatda oldimga kelib, 10-15 daqiqa men bilan gaplashishar edi. Men esa yapon tilida o'rganayotgan yangi so'zlarimni suhbatimiz davomida qo'llardim.

Mabodo, qanday ishlatishni bilmasam, ulardan so'rab olardim. Bir-ikki oy ichida yapon tilida teran va ravon gapira boshladim. Beppuda yashaydigan ko'p talabalar shaharning eng katta Suginoi mehmonxonasining restoranida ofitsiant bo'lib ishlashardi. Universitetda juda ham qadrdon bo'lgan Anvar akam ham shu yerda ikki yildan buyon ishlab kelayotganini eshitib, meni ham o'sha mehmonxonaga ishga taklif etishlarini so'radim. Ikki kunga qolmasdan mehmonxonadan go'ng'iroq qilib, suhbatga kelishimni so'rashdi. Suhbat ko'ngildagidek o'tmadi va suhbat qilgan inson javobini qo'ng'iroq orqali ma'lum qilishini aytdi. Oradan chamasi bir oylar o'tdi va boshqa ish izlamasdan o'zimning oldingi ishimda - idish-tovoq yuvishda davom etdim. Bir kuni notanish raqamdan go'ng'iroq bo'ldi. Olsam, men bilan suhbat qurgan o'sha

mehunonxona xodimi ekan. Ishga qabul qilinganimni va loji boricha tezroq ish boshlashimni aytdi. Shunday qilib endi idish-tovoq yuvmaydigan talabalikning olgan o'rtoqlashmoqchiman: foydalanib zahmatli taassurotlaridan Baqtdan bo'ldim. sururli xulosalarni bilan siz

1. Biror davlatga o'qishga bordingizmi, iloji boricha tezroq mahalliy tilni o'rganishga harakat qiling. Mahalliy tilni bilishingiz sizga nafaqat yaxshi ish berishi, balki o'sha davlatning insonlariga yanada yaqinlashishga imkoniyat yaratadi.

2. Mahalliy tilni dars mobaynida o'rgansangiz ham bo'ladi, lekin bu uzoq vaqt talab qiladi. Shuning uchun mahalliy aholi bilan imkon topildi deguncha, suhbat qurishga harakat qiling. Bahonada yashayotgan joyingizning shevasini ham o'rganib olasiz. Shevada sapira olishim o'sha yerda yashaydigan aholi bilan tezroq chiqishib ketishimga yordam bergan.



SIGARET CHEKISHNI

BOSHLADIM

Universitetda juda ko'p xorijlik do'stlar orttirganman. Eng yaqin do'stlarimdan biri Janubiy koreyalik Sungjae Park edi. Mendan sakkiz yosh katta bo'lishiga qaramasdan fikrlarimiz bir joydan chiqqani tufayli qisqa muddatda juda qalin do'st bo'lishga ulgurgan edik. Ko'pincha o'qishdan keyin uning uyiga borib, o'zbekcha, yaponcha va koreyscha ovqatlar qilib, vaqt o'tkazardik. Do'stim qahvani juda ham yaxshi ko'rar va har qahva ichgan paytida bir-ikki dona sigaret chekar edi.

Men ham ba'zida do'stinga qo'shib chekishni boshladim va chekishlarim soni kun sayin ko'payib bordi. Oldin do'stimning sigaretini chekkan bo'lsam, keyinchalik o'zim sotib olishni boshladim. Ko'pchilik chekishni siqilish yoki hayotida qandaydir voqea tufayli boshlaydi. Menda esa hech qanday sabab yo'q. O'qishim, ishim, hayotim, hamma-hammasi joyida edi. Yoshlik qilganman deb o'zimni oqlamoqchi emasman, lekin sog'ligimga juda katta zarar yetkazayotganimni bilib turib chekaverishim eng achinarlisi edi.

Xayolimda sigaret hidi bilan sepib yuradigan atrimning hidi aralashib, yoqimli hid beradi, deb o'ylar edim. Mabodo, chekayotgan yoki endi chekishni boshlayotgan bo'lsangiz, sizga do'stlik maslahatim, chekishni tashlang. Chekkanda siqilishdan xalos bo'laman, vazn yo'qotaman yoki atrimning hidiga aralashsa zo'r bo'ladi deb o'ylasangiz, katta xato qilasiz.

Yuqorida keltirib o'tgan sabablarni chekmasdan bo'ladi. O'zingizni o'ylamasangiz ham, siz bilan yashaydigan jufti halolingiz va kelajakda tug'ilajak farzandingizni o'ylang.



ZINAPOYAMGA TUTGICH

YASADIM

Mavzudan hayratlangandirsiz? Hayotning har bir bosqichini zinapoyalarga o'xshatgim keldi. Shu zinapoyadan tepaga chiqish uchun unga yillar mobaynida tutqich yasay boshladim va ular yordamida tepaga harakatlanaverdim... Shaharda yashaydigan talabalarning aksariyat qismi universitetga avtobusda borishardi. Men ham do'stlarim bilan shaharga ko'chganimdan keyin avtobusda qatnab yurdim. Har kuni borish- kelishga chamasini 50 daqiqa vaqtim ketardi.

Bir kun uchun bu kamdek tuyulishi mumkin, lekin 1 oyda 1500 (25 soat) daqiqa, 1 yilda esa 18000 (300 soat) daqiqa faqatgina yo'lda o'tib ketar ekan. Bundan tashqari, \$1000ga yillik "avtobus karta"sini xarid qilishim kerak edi. Hamma narsani qaytarsa bo'ladi, lekin vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi. Universitetimizda mototsikllari uchun maxsus joy ajratilgan bo'lib, ko'p talabalarning o'z mopedlari bo'lar edi. O'zbekistondan kelishimdan oldin asqotib golar deb, haydovchilik guvohnomasi olgandim, lekin Yaponiyada talabalarning moped/ haydovchilik bu guvohnomasini guvohnomamni "mensishmadi".

Keyin mening B va C yo'nalishlari uchun edi. "Mensigan" taqdirdayam mashina olib hayday olmasdim:

1. Buning uchun pulim yetarli emas edi.

2. Pulim bo'lgan taqdirda ham universitetimizda faqat o'qituvchi va professorlarning avtomobili uchun joy ajratilgan edi.

Yaponiyada haydovchilik guvohnomasini olish xuddi universitetdan diplom olganday gap, JUDA QIYIN. Bizdan oldin o'qib ketgan akalarimiz 16 marta yiqilib, keyin olishgani haqida ko'p gapirishgan.

Mavzuga qaytsam. Universitetga mopedda qatnab yuradigan do'stim men turgan joydan universitetgacha daqiqalik yo'l ekanligini aytdi. Bir kun hisobidan qaraganda 25 daqiqa va 15 daqiqa o'rtasidagi farq katta ko'rinmasligi mumkin lekin, bu sonlarni xuddi tepadagidek oylar va yillarga ko'paytirsangiz ancha farqni sezasiz.

Xullas, to'rt marta yiqilib, "50cc" mopedi uchun haydovchilik guvohnomasini oldim. Mopedning yangisi magazinda \$1000 ga yaqin, ishlatilgani esa holatiga qarab \$400-500 ga tushar edi. Talabaga yangi moped olishni kim qo'yibdi, albatta, men ham ozgina yurgan yaxshi holatdagi mopedni sotib oldim. Siz talabalikda uyquninig qadriga yetganmisiz yo'qmi bilmadim-u, lekin uyqu juda shirin va aziz narsaga aylanib qoladi. Menga moped "yana 10 daqiqa uxlab olay"ni, bundan keyin "ehh, shuncha pulga avtobus kartasini olyapman-a", "yana ozgina tezroq yurganimda shu avtobusni o'tkazib yubormasdim-a" demaslikni va asosiysi ancha vaqtim tejalishiga imkon berdi. Ishimga ham, o'qishimga ham, hatto Beppudan tashqari shaharlarga ham bemalol chiqib kelishni boshladim.

Yaponiyada moped talab uchun juda qulay transport vositasi hisoblanadi. Balki qulay borib o'qiydigan shahar yoki davlatda

ehtiyoj siz sezmasligingiz mumkin.bunga Bundan chiqadigan xulosalar quyidagicha:

1. Moped sotib olishni emas, ammo sarflayotgan har bir daqiqangizning qadriga yetishingizni maslahat bergan bo'lardim.

2. Imkoniyatingiz bo'lsa, universitet yotoqxonasida turing, yoki universitetga yaqinroq joydan uy toping.

3. Agar avtoshahobcha bo'lsa, o'zingizga mashina sotib oling.

4. Asosiysi vaqtdan yuting.Vaqtingizni kunga emas, oy va yillarga ko'paytirsangiz, o'zingizga kerakli javobni olasiz.



O'ZIMGA ISHONCHIM

ORTDI

Hozirgacha Universitetiga grant bilan o'qishga kirish mening eng katta yutuqlarimdan biri edi. Bundan tashqari boshqa sohalarda qirralarimni hali ko'rmaganim uchun o'zimga u qadar ishona olmas edim. Natijalarim bilan maqtanay desam, baholarim yomon, matematikadan qobiliyatim undan ham yomon. Har kuni ishlayverib, stress tufayli yuzlarimga husnbuzarlar chiqqandi. Ritsumeikan Tinchlik Osiyo Biror-bir qizga "gap otish"ga ham uyalardim.

O'zimga bo'lgan ishonchsizlik hayotimga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yog'li ovqatlar, shirinliklar, xullas, inson salomatligiga zarar yetkazadigan narsalarning ketini uzmasdan yerdim. Har soatda bolaxonaga chiqib, sigaret chekar, gamburger yeb, kino ko'rib yotardim.

Kundan-kun sog'ligim yomonlashar, bu esa o'qishimga e'tiborimni ham susaytirar edi. Odamning o'ziga ishonchi bo'lmaganidan keyin boshqa odamlarni qanday ishontira olsin? Agar shu hayot tarzida yana bir yoki ikki yil yashaydigan bo'lsam, o'qishdan haydalib ketishim yoki haydab yurgan mopedimga sig'may qolishim aniq edi.



CHETDAN KUZATDIM

Andishaning otini qo'rqoq deb bo'lmaydi.

Sohil bo'yida voleybol yoki futbol o'ynah ko'rganmisiz? Kunlar isishi bilan do'stlarim bilan sohil bo'yida maza qilib, futbol yoki voleybol o'ynar edik. G'arb kinolarini e'tibor berib ko'rsangiz. jismoniy baquvvat bolalar sohil bo'yida ustida kiyim kiymasdan yurishni yaxshi ko'rishadi. Universitet talabalari ham xuddi kinolardagidek sohil bo'yida tanasini ko'z-ko'z qilib yurishar edi.

Bir tarafdin ularni ko'rib g'ashim, boshqa tarafdin havasim kelardi. Havasim kelishiga sabab bu ularning qaddini tik tutib, boshqalar bilan ishonch bilan gaplasha olishida edi. Men esa qaddimni tik tutish uyoqda tursin birovning ko'ziga besh soniyadan uzoqroq qarab turolmas edim. Voleybol yoki futbol o'ynayotgan paytimizda jazirama issiq bo'lsa ham kiyimimni yechmasdan o'ynardim. Sababi men boshqa bolalar kabi jismonan baquvvat emas edim.

Oxirgi marta Milliy Xavfsizlik Xizmatiga hujjat topshirganda jismoniy mashqlar asosida tayyorgarlik ko'rgan edim. Undan so'ng uzoq muddat sport bilan shug'ullanmadim, aksincha, sigaret chekib, yog'li taomlarni tanovul qilib yuraverdim. Dengizda cho'milmoqchi bo'lgan paytlarim sohilda odam kamayishini kutib turardim. Xullas, menga har bir qilayotgan ishimda ishonch yetishmas edi.



FITNESS

Har bir insonning xonadonida yoki xonasida ko'zgu bo'lishi kerak. Uydan chiqayotgan vaqtingiz shu ko'zguda o'z aksingizni ko'rasiz. Ba'zida aksingiz xursandchilik, ba'zida esa tushkunlik kayfiyatini tug'dirishi mumkin. Fikrimcha ikkisi ham yaxshilikka yo'ysa bo'ladi. Mabodo, ko'zguda o'z aksingizni ko'rib quvonsangiz, demak, siz to'g'ri yo'l dasiz va shu yo'lingizda yanayam jadalroq harakat qiling. Agar buning teskarisi bo'lsa, demak, o'z hayot tarzingizni o'zgartirish vaqti keldi, deb o'ylayman.

Har doim ko'zguga razm solganimda oldingi Shohbozdan asar ham qolmaganini ko'rardim. Ich- ichimdan oldingi quvnoq, harakatchan, intiluvchan o'zimni ko'rishni xohlasamda, lekin buning uchun harakat qilishga juda ham erinchoqlik qilar edim. Kunlarning birida kompyuter o'yinlariga mukassidan ketib qolgan bolaning fitnes bilan uch yil mobaynida o'zgargani haqidagi videoni ko'rib qoldim. Videoda onasidan ayrilib qolgan bola tushkunlikka tushib, shu tushkunlikni yengish maqsadida video o'yinlar o'ynashni odat qiladi. Birmuncha vaqtdan so'ng bu holatga qaram bo'lib, keyinchalik, esa, video, o'yinlarsiz, umuman turolmaydigan bo'lib qoladi.

Bundan xavotirga tushgan ota fitnes klubdan bir ustoz yollab, o'g'lini bu odatidan xalos qilishni so'raydi. O'sha bola uch yil ichida xuddi avvalgi holatiga qaytadi hamda ijobiy tomonga o'zgaradi. Video oxirida o'zini oldingidan ham yaxshi his qilishi, o'ziga bo'lgan ishonchni oshganligi endilikda fitnesni o'zgarish uchun emas balki o'z turmush tarziga aylantirganini e'tirof etadi.

Videoda e'tiborimni tortgan eng muhim jihat - uning oxirgi so'zlari bo'ldi: "O'zimga bo'lgan ishonchim yanayam oshdi". Shu soniyada sohil bo'yida qaddini tik tutib, o'ziga ishonch bilan yurgan bolalar esimga tushdi. Fitnes bilan ishonch o'rtasida qandaydir umumiylik borligini anglay boshladim. Yotgan joyimdan tez turib, fitnes klubga shoshildim Anchadan buyon shug'ullanmay qo'yganimgami, fitnes klub go'yo yangi sayyoraga o'xshar edi. Yugurish mashinasidan boshqa hamma narsa menga yetti yot begona edi. Xuddi mehmonga kelgandek uyalib, yugurish mashinasiga chiqdim. Xayolimda menga hamma qarab turgandek. O'zimga "Shohboz, o'zingni fitnes klubga har doim kelib yuradigandek tutgin", deb buyruq berdim. Chamasi o'ttiz daqiqa yugurdim va o'zimni yanada yaxshi his qila boshladim. Boshida haftasiga bir marta, keyin ikki-uch, yarim yil ichida esa fitnes klubga haftasiga besh-olti marta borishni odat qildim. Kun sayin tanamda yuz berayotgan o'zgarish, o'zimga bo'lgan ishonchning oshishiga va ko'zguda o'zimni ko'rganimda kayfiyatim ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bilimlarni tez o'zlashtira olishim va ularning mazmun-mohiyatini anglay boshlaganim baholarimning yaxshilanishiga olib keldi. Endilikda fitnesni ozish, semirish yoki baquvvat bo'lish uchunemas, balki kundalik hayottarzimga aylantirdim.



CHEMPION BO'LDIM

Harbiy maktabda o'qib yurgan kezlirim sportning boks yoki kikkoks turi bilan juda shug'ullanishni xohlar edim. Do'stlarim maktabimiz yonginasida joylashgan "JAR" sport saroyida turli sport turlariga qatnashishardi. Maktab o'quvchilari uchun juda ham katta chegirma ajratilgan bo'lib, men ham onamga biror-bir sport turi bilan shug'ullanishim uchun pul berishlarini so'raganman. Onamning o'sha paytlari sharoitlari yo'qligi tufayli hech qaysi sport turiga borolmagaman. Yosh bo'lganimgami bilmadim, o'sha payt onamdan xafa bo'lganim esimda, hozir shularni o'ylasam o'zimdan uyalib ketaman.

Universitetimizning fitnes klubida shug'ullanib yurgan kezlirim Kyoto shahrining "Arm Wrestling", ya'ni qo'l kurashi bo'yicha chempioni Makaya Nakata ismli yigit bilan tanishib qoldim. Yoshligimizda do'stlarim bilan maktab partalarida qo'l kurashi bo'yicha juda ko'p bellashardik. Tez chiqishib ketdik, u tez orada qo'l kurashi bo'yicha ustozimga aylandi. Ko'pchilik qo'l kurashini oddiygina sport sifatida qabul qiladi, jumladan, men ham shu insonlar qatorida edim. Lekin ustozim menga qo'l kurashi hech qachon bir kishi bilan bo'lmaydi, albatta, bellashish uchun ikkinchi odam zarur. Ikkinchi odam bilan muloqot va bu muloqotning natijasi o'z-o'zidan do'stlikka yetaklaydi, deganlari hali hamon esimda. Shu sport tufayli ko'p do'stlar orttirishga muvaffaq bo'lganman.



KELAJAKDA KIM

BO'LMOQCHIMAN?

Bu savol juda ko'p yoshlarni, hattoki kattalarni ham qiynaydi. Yoshligimda shunday savol berishsa, o'zimga ishonch bilan "prezident" derdim. Vaqt o'tishi bilan orzular ham o'zgarar ekan. Har yili yoki har ikki yilda kelajakda qaysi kasbni tanlashim bo'yicha tasavvurlarim o'zgara boshladi.

Maktabni bitiray deganimda harbiy, litseyni bitiray deganimda tadbirkor, universitetni bitiray deganimda esa bilmayman... Bilmasligim uchun ba'zida ota-onamni, ba'zida esa muhitni ayblardim. Lekin boshqalarni ayblashda davom etaversam, bir kun kelib, yoshim bir joyga borib qolganda afsuslanishni xohlamas edim. "ISH OVI" BOSHLANDI

Yaponiyada "job hunting" - "ish ovi" boshqa davlatlardantubdanfarqqiladi.Keling, "ishovi"vauning o'ziga yarasha ahamiyatlari haqida tushuntirib bersam. "Ish universitetni bitirayotgan talabalar go'yo o'rmonga hayvon ovlagani chiqqanidek, internetga "ish ovlagani" yoki tanlagani kirishib ketishadi. Yaponiyada "ish ovi", odatda, har yili yanvar oyidan boshlanadi.

Odatda, talabalar ishlashni xohlagan kompaniyaning web sahifasidan o'zlari haqidagi ma'lumotni to'ldirib jo'natishadi. Agar ma'qul kelsa, birinchi suhbatga chaqirishardi. Ko'p kompaniyalar Tokiyo, Osaka, Kyoto, Yokohama va shu kabi katta shaharlarda ovi" nomidan ko'rinib turganidek, joylashgan. Shu shaharda

yashovchilar uchun boshlang'ich suhbatga borish muammo tug'dirmasdi.

Universitetim Yaponiyaning bir chekkasida joylashganligi tufayli har yili ikki yuzdan ortiq dunyoning eng nufuzli korporatsiyalaridan ishga oluvchilarkelib, universitetningo'zidayoqboshlangich suhbatdan o'tkazishar edi. Bu esa, albatta, talabalarga qulaylik tug'dirardi. Mabodo, oxirgisuhbatga o'tsangiz. kompaniyaga borishingizga to'g'ri kelar va borib. kelish uchun ketadigan hamma xarajatni kompaniya goplab berardi. Bu haqida eshitganmisiz yo'qmi, bilmadim-ku, lekin ishga topshiriladigan "resume", ya'ni "o'zingiz haqida ma'lumotnoma"ni qo'lda yozishingiz kerak edi. Nimaga deysizmi? Yaponlarning o'ylashicha, qo'lda yozish - bu o'sha kompaniyaga haqiqatan kirmoqchi ekanligingizni bildirar ekan. Yaponiyada ishga kirish uchun qaysi yo'nalishda o'qiganligingiz katta ahamiyatga ega emas, albatta, tibbiyot, muhandislik va shu kabi sohalardan tashqari. Yaponiya kompaniyalari bir kishini ishga olish uchun juda katta mablag' sarflaydi. Har bir yangi ishchi uch oydan bir yilgacha "training", ya'ni tayyorlov muddatinio'taydi. Shutayyorlovmuddatichidao'zingiz ishlaydigan bo'lim faoliyatini ipidan-ignasigacha o'rgatishadi. Har bir kompaniyaning ishlash uslubi har xil, shuning uchun sinov muddati ham shunga qarab belgilanadi.

Mana, siz o'qigan sohaning nima uchun ish beruvchilarga ahamiyati yo'qligining sababi nimada. To'rtinchi bosqichga ham o'tdim, do'stlarim "ish ovi"ni boshlab yuborishdi. Men esa ishga topshirsammi yoki magistraturaga o'qisammi degan xayollar bilan band edim. Bu xayollarimga turli xil sabablar bor: kelajakda qaysi

soha egasi bo'lishimni hali aniqlay olganim yo'q va aniqlashim uchun menga vaqt kerak edi. Agar ishlaydigan bo'lsam, ish bilan ovora bo'lib, qaysi soha vakili bo'lishimni to'g'ri aniqlay olmayman, deb o'yladim. Agar ish topib, vizamni ishchi vizaga o'zgartirmasam, O'zbekistonga gaytib ketishimga to'g'ri kelardi. Bu vaqtni topish va o'ylay olish imkoniyatlardan biri magistratura edi.



MAGISTRATURAGA GRANT

YUTDIM

Magistraturada tahsil olmoqchi bo'lsam Tokiyoda joylashgan Keio yoki Waseda Universitetlariga topshirishim kerak edi. Chunki ingliz tilida biznes ta'limini o'qitadigan eng nufuzli universitetlar shular edi. Negadir xayolimga Yaponiyadan boshqa davlatlardagi oliygohlarni qidirish fikri kelib qoldi. O'sha paytlar Skandinaviya mamlakatlarining ta'limga bo'lgan e'tibori haqida ko'p maqolalar o'qiganim uchunmi, universitetim hamkorlik qiladigan Skandinaviya mamlakatlarida joylashgan oliygohlarni topdim. Keio joylashgan Waseda topshirishim edi.

Hujjatlarimni birinchi Shvetsiyaning Lund Universiteti, Business BI Norwegian Business Schoollariga yubordim. To'rtinchi bosqichgacha magistraturada o'qish xayolimga kelmaganigami, bakalavrda baholarimga uncha e'tibor bermagan ekanman. Hujjatlarimni dunyoning eng nufuzli universitetlariga yuborganim bois meni bu ko'rsatkichlarim bilan qabul qilishmasa kerak deb o'ylab, do'stlarim bilan "ish ovi"ga kirishdim. Ich-ichimdan ishga kirishni xohlamaganim sababli ish ovidan kelayotgan natijalar yomon edi. Shunda o'zing yoqtirmagan ishni qilish - qanchalik qiyin ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

"Ish ovi"ga tayyorgarlikni do'stlarim bilan kutubxonamizda joylashga yuzdan ortiq kompyuterlarda amalga oshirar edik. Zerikkan paytimizda yoshlikni eslab, "Counter Strike" o'yinini o'ynardik. Aytgancha, bunday o'yinlarni o'ynash kutubxona

ma'muriyati tomonidan do'stlarim bilan ta'qiqlangan edi. Juda ko'p ogohlantirishlarga qaramay o'ynayverardik. Ha, nima qilaylik, "ish ovi"ning muammolaridan uzoqlashishning yaxshi yo'llaridan biri edi. Kunlarning Norvegiyadan kirganligim haqidagi tabriknoma edi. Bir tarafdin juda xursand bo'ldim, boshqa tarafdin esa grant yutganligim yoki yutmaganligim haqida hech qayerda yozilmaganligi ko'nglimni g'ash qilar edi. Agar grant yutmagan bo'lsam, o'qish puli juda ham qimmat va buni to'lashga esa mening pulim yo'q edi. Shoshilib, Norvegiyaga grant haqida hech qanday ma'lumot yo'qligini tushuntirib, xabar yubordim. elektron Xabar pochtaga o'qishga birida xabar keldi.

Oradan ikki kun o'tib, ular o'qishga kirish va grant yutish xabarlari alohida yuborilishini, tez kunlarda grant haqidagi ma'lumotni ham olishim mumkinligini aytishdi. Buni eshitib ko'nglim ancha joyiga tushdi. Oradan 15 kunlar o'tar-o'tmas, grant haqida ham xabar keldi. O'zim xohlagan yo'nalishda 100 % grant asosida o'qishga qabul qilinibman. Buni eshitgan do'stlarim ham juda xursand bo'lishdi.



NORVEGIYADAGI ILK

SARGUZASHTLARIM

Norvegiyaning muhojirlarga nisbatan jiddiy qonun-qoidalarini ko'p. Oddiy talaba bo'lib borish uchun ham ancha bosqichdan o'tishingizga to'g'ri keladi. Talabalik vizasiga hujjat yig'ish magistraturaga grant yutib olishdan ancha qiyin kechdi. Birinchi va eng katta muammo pul edi. Norvegiya hukumati qonun-qoidalariga ko'ra, har bir talaba viza bilan taqdirlanishi uchun o'z universitetiga 13.000 AQSH dollari o'tkazishi so'raladi. Tog'risini aytsam, men endi magistraturaga kirdim, yaqinda ketaman deb chuchvarani xom sanagan ekanman. Nisbatan

Oddiy talabada buncha pul nima qilsin? Buncha pul nimaga deysizmi? Norvegiya hukumatining hisob-kitoblariga ko'ra, bir talaba yiliga yeb-ichish, yashash va kerakli narsalarni sotib olishi uchun 13 ming AQSH dollari ketar ekan. Hukumat qarorini qo'llab-quvvatlayman, sababi shu orqali talabalar ko'chada pulsiz qolib ketishmaydi. Albatta, pulimni Norvegiyaga borishim bilan oq qaytarib berishlarini aytishdi. Biroq shuncha pulni qayerdan topishga boshim qotib qoldi.

Onamga qo'ng'iroq qilib, vaziyatni tushuntirishga harakat qildim. Onam chet mamlakatlarda yashamaganliklari tufayli vaziyatni bir emas, bir necha marotaba tushuntirishga majbur bo'ldim. Onam menga 5 ming AQSH dollari berib tura olishlarini va qolganini o'zim topishimni aytdilar. Norvegiyaga ozgina pul yig'ib qo'ygan edim, lekin bu pul Osloda go'shimcha ish topib

olgunimgacha ishlatishim uchun yig'ib qo'ygan edim. Do'stlarim allaqachon o'zlari yoqtirgan kompaniyalaridan ish olishgan va men esa bu yerda tang ahvolda qolib ketgan edim. 8 ming AQSH dollarini 15-20 kun atrofida do'stlarimdan so'rab ko'rdim va hech kimda buncha pul yo'qligini anglab yetganimdan so'ng, magistraturaga borolmasligimni tushunib yetdim va yana ish oviga qaytdim.

Kunlarning birida Yaponiyada bir paytlar men bilan yashagan va hozirda Kanadaga ko'chib ketgan akam hol-ahvol so'rab yozdilar. Vaziyatimni tushuntirdim va hozir nima qilishni bilmaganim uchun maslahatlari kerakligini aytdim. Ravshan akam menga yetti yot begona bo'lganlari bilan, menga xuddi o'z qarindoshiga ishonganday ishonardilar. Universitetda o'qib yurgan paytlarimizda juda ko'p yordamlari tekkan. Ravshan akam hozirda bankda ishlayotganligi va menga kredit olib berishlarini aytdilar. Shunday qilib, juda qisqa fursatda 8000 AQSH dollarini jo'natib yubordilar. Bu pulni topgunimga qadar har bir kunim go'yo yildek o'tayotgandi. Niyatim yaxshiligi va shuncha harakat qilganim tufayli eng kerakli odamga ro'paro bo'ldim. Onam, Ravshan akam va Shoxruh do'stimdan qarz olib turdim.

Norvegiyaga kelishim hayotimda yuz bergan voqealar ichida eng qiziqalaridan biri bo'lgan desam, yanglishmagan bo'laman. Fukuoka - Oslo yo'nalishi bo'yicha samolyot chiptasini Norvegiyaga talabalik vizasini qabul qilganimdan so'ng xarid qildim. Iyun oyining boshi edi. Har doim chiptalarni shaxsiy kredit kartochkam bilan xarid qilganim uchun Osloga chiptani ham xuddi shunday xarid qildim. Norvegiyadagi o'qishim 22-avgustdan boshlangani tufayli BI Norwegian Business School universiteti menga vaqtliroq

kelishni tavsiya qildi. Shuning uchun chiptamni 4-avgustga xarid qildim. Xoh ishonang, xoh ishonmang, bu kunni intizorlik bilan kutdim. 4-avgustda Beppudan bir kun vaqtliroq chiqib ketib, yaqinroq mehmonxonada qolishga qaror qildim. Xalqaro Aeroportiga Fukuoka Soat chamasi 14:00 edi. To'satdan elektron pochtaga Aeroflot Aviokompaniyasidan menga elektron xabar keldi. Xabarni ochib qaragam, kredit kartochkam tekshiruvdan o'tmaganligi tufayli 4-avgust kuni uchib ketolmasligimni aytishdi. Zudlik bilan Aviakompaniya bilan bog'landim. Ularning aytishicha, odatda, xaridorning kredit kartochkasi chipta xarid qilayotganida va xariddan so'ng yana bir marta tekshiruvdan o'tishini aytishdi. Kredit kartochkam pul to'laganimda tekshiruvdan o'tganligi, lekin ikkinchi tekshiruvdan o'tmaganligini tushuntirib berishdi. Keyin men Yaponiyadan ketayotganligim uchun chiptani xarid qilib bo'lib, bankimga bog'lanib kartochkamni yopishni so'ragan edim deb ularga tushuntirdim. Bu vaziyatni Avikompaniya ishchilari tushunishdi va menga pulimni ma'lum bir hujjatlarni jo'natganimdan so'ng qaytarib berishni aytishdi. Afsuski, mening chiptam boshqa odamga sotilib ketgan ekan. 4-avgustda faqatgina Turk Havo Yo'llarida chipta bor ekan. Norvegiyaga bir yarim ming AQSH dollari atrofida pul yig'ib qo'ygan edim. Shundan ming AQSH dollarini chipta sotib olishga sarfladim va yonimda atigi besh yuz AQSH dollari qolgan edi. Bu bilan besh yuz AQSH dollari qiymatsiz, demoqchimasman. Lekin dunyoning eng qimmat shaha hisoblangan Norvegiyaning poytaxti uchun besh yuz AQSH dollari atigi uch haftaga yetardi, xolos. Tavakkal qilib, 4-avgust kuni erta tongda Norvegiyaga uchib ketdim. Bu hayotimdagi eng noqulay chipta bo'ldi desam, adashmagan bo'laman. Birinchi Fukuoka shahridan Osaka shahriga uchdim. Osakada besh soatlar

tranzitdan so'ng, Istanbulga 12 soatlik sayohatga yo'lga chiqdim. Istanbulning Otaturk Aeroportida 16 soat tranzitda o'tirishimga to'g'ri keldi. Odatda, dunyoning katta aviakompaniyalari 12 soatdan uzoq tranzitda o'tiradigan yo'lovchilarni tekinga mehmonxona bilan ta'minlashi haqida eshitgan edim. Turk Havo Yo'llarida bunday xizmat ko'rsatilmay ekan. Mehmonxonaga jon deb borgan bo'lardim, lekin pulimni ishlatib qo'ysam, Osloda juda qiyin ahvolda qolib ketishim aniq edi. Aeroportning bir chetidan yaxshi joy topdimda, sumkani boshimga qo'yib uxladim. Ichimda "mabodo narsalarimni o'g'irlab ketishsa, nima bo'ladi" degan xayol bo'lgani uchun yaxshi uxlay olmadim. Amallab 16 soatni o'tkazdim. Istanbuldan Osloga 4 soat uchdik. Osloda kechki 11. Do'stim Awale (APUda tanishganman, asli somaliyalik, Norvegiyada tug'ilib o'sgan) Osloda avtobus bekatida kutib olishini aytdi. Men esa Osloga ketadigan oxirgi avtobusga zo'rg'a ulgurdim. Do'stim meni kutib olib, yotoqxonaga olib borib qo'ydi. Yotoqxonaga borganimdan juda qattiq afsuslandim. Yotoqxonada binosi eski, lift tushadiganday harakat qilar edi. Xonam esa bo'm-bo'sh. Shu payt Yaponiyaga birinchi marta borganim xayolimga tushdi. Yaponiyadagi yotoqxonada hamma narsa tayyor edi, shunday kirib yashasa bas. Bu yerda esa stol, stul va divandan boshqa hech vaqo yo'q. Do'stim keyingi ikki-uch kun band bo'lishini aytdi. Chamasi 40-41 soat yo'l yurib keldim Do'stimni kuzatib yuborib, xonamga qaytib kelib ko'zimdan to'xtamasdan yosh chiqib ketdi. Nima gilayotganimni o'zim ham bilmadim. Kechqurun bilan "to'g'ri qaror qabul qildimmi?" degan o'y bilan uxlovladim. Tongga yaqin Yaponiyadan olib kelgan kurtkamni kiyib, bo'm-bo'sh divanda uxladim Osloda Awaledan boshqa hech qanday tanishim yo'q edi. Pulim AQSH dollarida bo'lganligi tufayli

pulimni qayerda almashtirishni bilmas edim. Xonamda internet tarmog'i bo'lgani bilan uni ulash uchun maxsus sim kerak. Tavakkal qilib tashqariga chiqdim. Atrofga yaxshi nazar tashlab, atrofdagi narsalarni yodlab oldim. Sababi, mabodo, uzoqlashib ketsam, qaytib kelishimga oson bo'lsin deb. Pul almashtirish shoxobchalari, odatda, shahar markazida bo'lgani uchun ko'chadagi odamlardan so'rab-surishtirib pul almashtirish shaxobchasini topdim. Bu shaxobchani ko'rganimda xuddi tillo topib olgandek xursand edim. Yaponiyada halol mahsulotlarni topish juda mushkul, topgan taqdirimda ham juda qimmat edi. Norvegiyada esa bu muammoga umuman duch kelmasligimni, uyga bozorlik qilayotganimda anglab yetdim. Shahar markazida besh-oltita masjid, o'ndan ortiq halol qassobxonalarini uchratdim. Bunga sabab Osloda Pokiston, Somaliya, Hindiston va boshqa davlatlardan musulmonlarning ko'pligi ekan. O'qishim ham ana-mana deguncha boshlandi. To'g'risini aytsam yangi davlatga o'rgana olmayotganimgami, odamlari kamgap ekanligigamibilmadim, magistraturaga kelganimdan afsusda edim. Pulim kam qolganligi sabab har daqiqa ko'nglim g'ash edi. Tezroq ish topmasam, tez kunlarda och qolishim aniq. Universitetim o'qish boshlangandan keyin 5000 ming AQSH dollarini, ya'ni grant pulini berdi, men uni onamga, Ravshan akamga va do'stinga jo'natib yubordim. Yonimda esa juda kam pul qolgandi. Oktabr oyida Facebook orqali Bekzod aka menga bog'landi. Oldiniga ko'zlarimga ishonmadim, sababi Bekzod aka haqida Taraqqiyot markazida ingliz tilini o'rganib yurgan paytlarim eshitgan edim. Hozirda Osloda ko'z doktori bo'lib ishlar ekanlar. Yaqindan tanishib oldik va menga Norvegiyada ish topish bo'yicha o'z maslahatlarini berdilar. Maslahatlari bo'yicha o'zim haqimdagi hujjatlarimdan bir nechta nusxa olib, online va

to'g'ridan-to'g'ri 50 dan ortiq tashkilot va restoranlarga topshirib chiqdim. Taxmin qilganingizdek, hech biridan javob kelmadi. Kunlarim birin-ketin o'taverdi. Bir kuni uyg'onib, muzlatkichni ochganimda quritilgan mevalar, bodom, yong'oq va apelsin sokidan boshqa hech narsa qolmaganini ko'rdim. Xayolimga onam keldilar, chunki ularni menga onam jo'natgandilar. Maslahatim: vatandan yiroqqa ketyapsizmi?! Albatta, o'zingiz bilan quritilgan meva va yong'oq oling, chunki och golganda bir tomondan ham to'q tutadi, ham miyani ishlashiga yordam beradi.





UMIDSIZLIKDAN UMIDGACHA...

Quruq mevalar va apelsin soki bilan 3 kun yashab ko'rganmisiz? Men yashab ko'rganman. Negadir Yaponiyada sohil bo'yida o'tirib yig'laganim esimga tushib ketdi. Hozir ham deyarli xuddi shunday vaziyatda edim, ya'ni boshi berk ko'chaga kirib qolgandek. Quruq mevalar yeyaverib tomoqlarim shilinib ketgan kunlarning birida Facebook sotsial tarmog'i orqali bir ishdan xabar keldi. Xabarda suhbatga qachon kela olishim so'ralgan ekan. Men esa xabar kelganiga 30 soniya bo'lmasdan zudlik bilan "hozir bora olaman" deb yozdim. Omadni qarangi, unda meni suhbatga kelishimni so'radi. Suhbat ishxonaning o'zida Suhbatni angliyalik, hozirda yaqin aylangan, shu ishxonaning menejeri Steve oldi. Steve bilan tezda chiqishib ketdik va u meni ishni qachondan boshlay olishimni so'radi. Menga pul shunchalar zarur ediki, "bugundan" deb baland ovozda gapirib yuborganimni ham sezmay qolibman. bo'lib o'tdi. do'stinga Ishxonam ingliz uslubida qurilgan "The Star" deb nomlangan, ikki qavatli karaoke bari edi.

Karaoke Yaponiyada juda ham mashhur va Norvegiyada ham bunchalik mashhur ekanligi yetti uxlab hayolimga ham kelmagan edi. Ishim kechqurun 8 da boshlanib, ertalabki 5 gacha davom etardi. Ishimning birinchikuni bir yoshi katta inson kirib ichkilik buyurdi. Ishxonada men va u insondan boshqa odam yo'qligi uchun menga savollar bera boshladi. Savollaridan birida qayerda o'qishimni so'radi. Men esa "BI Norwegian Business School"da deb javob berdim. Universitetimda ko'proq boy insonlarning farzandlari o'qiganligi tufayli, u menga "U yerda o'qiydigan bola

bunday joyda nega ishlayapti?" deb so'radi. Men esa yoshim 20 dan o'tganligi, odatda, bu yoshda bizni davlatda ota-onadan pul so'rash uyatligi va qiyin bo'lsa ham o'z kuchim bilan oyoqqa turishim kerakligini tushuntirdim. Bu gapni eshitgan yoshi katta inson menga qarab "Bizni zamondagi bolalar ham shunday edi, hozir juda ko'pchilik yoshlar dangasa bo'lib ketishgan" deb javob berdi. Suhbatimiz so'ngida menga 500 NOK, ya'ni 60 AQSH dollariga yaqin pulni choy-chaqa sifatida berib, "Sendek yoshlar hali ham borligidan juda ham xursandman" deb bardan chiqib ketdi. Ko'zimdan to'xtamasdan yosh oqishni boshladi va yoshlarimni artib olish uchun kiyim almashtirish xonasiga yugurib kirib ketdim. Ko'z yoshimga sabab, bugun ishdan keyin quruq meva emas, balkim anchadan buyon ta'mi esimdan chiqib ketgan tovuq yoki mol go'shti olib yeya olishimda edi.

Ishim tugagandan so'ng, 24 soat ishlaydigan do'kondan 1 emas, 2 emas, 3 ta "hotdog" sotib olib, xuddi ovqat ko'rmagan insondek yeyishni boshladim. Ko'chada yurganlar esa meni bu holatda ko'rib ba'zilari kulib, ba'zilari esa kelib hol-ahvol so'rab ketishdi. O'zimni juda yomon his qilgan bo'lsamda, ich- ichimdan juda hursand edim, sababi ertaga tong otishi bilan do'konga borib tovuq sotib olib, mazzaqilib yeyishimni bilar edim. Har kuni tushgan choy- chaqa bilan birinchi oyligimga zo'rg'a yetib oldim. Muhammad Yusufning she'ridan bir misra keltirdim, sababi bir kun kelib albatta hammasi yaxshi bo'lishiga qattiq ishonardim. Taxminan to'rt oy davomida qattiq ishlab, ham kun ko'rish, ham o'qishni eplab ketish juda ham murakkab jarayon edi.

Inson nimagadir erishish uchun qanchalik qattiq harakat qilishi kerakligini tasavvur qilolmaysiz. Nega menda hammasi yaxshi

bo'lmayapti deb, ko'pchilik o'ylaydi? Nega boshqalarga bo'lgan e'tibor kuchli?

Mening boshqalardan nima kam joyim bor? Bilasizmi. hammasiga javob bitta! Odamzotni bir-biridan ajratib turadigan narsa bu uning ongida! Hech qachon umidsizlikka tushish kerak emas!!! Vaholanki, o'limdan boshqa hamma qiyinchiliklarning yechimini topsa bo'ladi. Ishlab o'qiyman deb sog'ligimdan ham bir tomondan ayrilganman, ya'ni soat 9 dan ertalab 5 gacha ishdan bo'lib, soat 7 da o'qishga ketardim. Uyqu 2 soat bo'lardi.



ZBEK

Fitnes klubga birinchi borishni boshlagan paytlarim ko'p ma'lumotlarni YouTube tarmog'idan olar edim. Eng yoqtirgan kanallarimdan biri bu Christian Guzman ismli video blogger kanali edi. Asli amerikalik bo'lib, o'z kanaliga fitnes va sog'lom ovqatlanish haqida juda foydali videolar joylab borardi. Shu paytlar bu bola o'zining kichkina "Alphalete" deb nomlangan shaxsiy fitnes brendini boshladi. Va shaxsiy brendni qanday boshlash va nimalarga e'tibor berish kerakligini ipidan ignasigacha o'rgatishni boshladi. Alphalete qisqa vaqt ichida nafaqat Amerikada, balki dunyoda eng katta fitnes kiyim-kechaklar brendiga aylanishga ulgurdi. O'sha paytlar men ham bir kun kelib o'z fitnes brendimni yarataman deb o'zimga-o'zim va'da berib qo'ygan edim. Magistratura ishlari bilan juda band bo'lib ketdim va shaxsiy brendimni boshlash uchun yonimda yetarlicha mablag'im ham yo'q edi. Magistraturaning 1-chi kursini tamomlay deb qolgan paytim, o'z brendimni boshlash uchun bel bog'ladim. Amerikalik do'stim bilan "High Athletics" deb nomlangan brend logotipini yaratib, futbol kalar ishlab chiqarishni boshladik. Futbol kalar Norvegiyadagi do'stlarim tomonidan juda ham pozitiv qabul qilindi va ozgina pul ishlashga ham muvaffaq bo'ldim. Lekin mening maqsadim bu brendni Norvegiyada emas, aksincha, o'z vatanimda rivojlantirish edi. Negadir "High Athletics" da milliylikni ko'rmadim va nominio'zgartirishga qaror qildim. Juda ham ko'p vaqtdan so'ng "ZBEK" deb nom berdim. ZBEK dagi "Z", ya'ni oxirgi va Bek, ya'ni o'zbeklar, to'liq qilib aytganda "oxirgi beklar" ma'nosini anglatuvchi nom berdim. Yuqorida aytganimdek, grantimni yo'qotib O'zbekistonga qaytib ketayotgan paytim, endi vaqtimni

shu sarflayman dedim.Hozir O'zbekistonga borsam xohlagan matoni topishim mumkin va alogador ishlarim ancha osonlashadi deb borgan edim.Lekin juda qattiq adashgan ekanman.. rivojlantirish brendni uchun tekstilga O'zbekistonga qaytishda o'zim bilan mashxur sport kiyim kechaklari - Nike, Adidas va Reebok bir nechta futbolkalar olib olgandim.O'zingiz bilsangiz kerak, fitnes yoki sport futbolkalari oddiy futbolkalardan ancha farq qiladi va narxi jihatdan ham oddiy kiyim- kechaklardan 2 yoki 3 barobar qimmat.Chunki sport kiyimlariga ketadigan mato terini o'ziga shimib oluvchi, shugullanishni osonlashtiradigan, bir necha qimmat matolarning aralashuvidan tayyorlanadi.Bir necha tikuv sexlariga bog'lanib, shunday futbolkalar tikib bera olishadimi yoki yo'qmi deb so'radim.Va ular bunday matolar O'zbekistonda ishlab chiqarilmasligi va faqat Xitoydan olib kelishning iloji borligini aytishdi.Faqat Xitoydan olib kelinadigan bo'lsa, engkamida1yoki2tonnasotibolishimkerakligini aytishdi.Yosh tabdirkorda buncha pul qayerdan ham bo'lsin?High Athleticsga ham Xitoydan buyurtma bergan edim, lekin boshida 50 ta so'ragan paytimda, hech qanday qarshiliklarsiz tikib berishgan edi/ Juda ham ko'p joylarga mato qidirib bordim va bir joydan men xohlagan matoga yaqinrog'i bor ekan. Nima bo'lsa bo'ldi, shundan sotib olib tikaman deb, matoni Andijondagi tikuv sexiga jo'natib yubordim. Mato muammosidan qutuldim desam, keyingi muammo chevarlar ekan. Juda ham ko'p tikuvchilar "standart" kiyim tikaverib, men shaklda tikish ular uchun katta muammo bo'ldi Andijonga Toshkentdan chamasi sakkiz marta gatnah 100 dona futbolka chiqarishga muvaffaq bo'ldik, xohlagan Futbolkalar birin-ketin sotilishni boshladi, lekin ozgina vaqt o'tgandan keyin yaqin do'stimning futbolkasidagi mato o'zgarishini ko'rdim. Mato sotgan

insonga bu muammoni aytsam, "Eng yaxshi mato shu, bundan yaxshisini topa olmaysiz" dedi. O'sha payt O'zbekistonda bu ishni boshlashim to'g'rimikan deb rosa o'ylandim. Albatta, hamma biznesda xatoliklar bo'ladi va buning mas'uliyati faqatgina o'zimda edi. Futbolkaga buyurtma berishning o'ziga yarasha noqulayliklari bor. Eng katta noqulayliklaridan biri - bu siz nechta S, M, L razmer sotilishini bilmaysiz. Shuning uchun buyurtma berayotgan paytda, taxmin qilishingizga to'g'ri keladi. Sotilmay qolgan hamma razmer sizga zararga kiradi. Menda ham xuddi shunday bo'ldi. Juda ham ko'p M razmerdagi futbolklar sotilib, S va L deyarli sotilmay qolib ketdi. Buning zararini qoplash uchun, futbolka hammaga birdek to'g'ri keladigan biror bir mahsulot sotishdan boshlasammikin deb o'ylab qoldim... balkim emas, Albatta, bu mahsulot "kepka" edi. Kepka sotishning qulayligi shunda ediki, kepaki xohlagan razmeringizga moslab kiysangiz fikrim, albatta, muvaffaqiyatli bo'ladi deb chiqaruvchi sexlarga borib, ularning mahsulotlarini kepka oldingi ko'rishni boshladim. Ishonasizmi, shu payt biznes boshlaganimga shunaqa darajada afsuslanib ketdimki, bu tuyg'uni o'zimdanda boshqa hech kim bilmas edi. chiqargan birma-bir Kepkalar juda ham arzon paxtali matodan tikilar va bilsangiz bunday kepka kiyish boshni terlatib, soch to'kilishiga sabab bo'lardi. Bu haqida sex boshlig'idan so'rasam, "Hozir shunga talab katta, shuning uchun faqatgina shu paxtali matoda chiqaramiz, agar yaxshiroq paxtali mato kerak bo'lsa, Xitoydan olib keltirishimiz kerak" dedi. Sal insofliroq odam ekan, 1 tonna emas, siz qancha xohlasangiz shuncha olib keltirib beramiz dedi. Tavakkal qilib Xitoydan mato olib kelib, 200 dona kepka buyurtma berdim. Har kuni o'n minglab kepka tikayotgan odam "200" ni eshitib, boshida menga hatto qaragisi kelmadi. Buvijonim

yoshligimda "Bolam, ba'zida ishingni bitkazish uchun itingni ham aka deyishga to'g'ri keladi" degan gaplari bilan "iltimos akajon" deb bir amallab kepkalarni tiktirib oldim. Kepkalaro'zim kutganimdekjudatezsotilibketdi, lekin bu paytda menga Norvegiyadan talabalik vizasi chiqdi. Oldimda ikki yo'l paydo bo'ldi, O'zbekistonda qolib biznesimni rivojlantirish, yoki Norvegiyaga qaytib borib o'qishimni yakunlash. Yuragim Norvegiyaga qaytib borib magistraturani tugatishimni va shundan so'ng bir qarorga kelishimni aytdi. Shu bilan avgust oyida Norvegiyaga uchib ketdim...

ISH TOPDIM

Juma kuni edi... Kunimni har doimgidek kitob mutoaala qilish bilan boshladim. Qishdan yozishni boshlagan. Bu yil qish to'rt oydan ortiqroq davom etdi va juda ko'p qor yog'di. Negadir qishni juda yomon ko'raman, chunki undagi qorong'ulik xuddi o'zining girdobiga olib kirib ketadigandek. chiqib ketishni xohlayman. kurtak endigina daraxtlar chiqib, undan Men esa Nonushta qilib bo'lganimdan so'ng, yaxshi niyatlar bilan qo'shimcha ish topgan korxonaga qarab yo'l oldim.

Bu korxonada o'qishdan bo'sh bo'lgan kunlarim kelib ishlar va topgan pullarim kundalik xarajatlarimga yetib turardi. Yaqin kunlardan buyon ertalab soat 5 da turishni odatga aylantirdim, ishimga ham bir soat erta borardim. Fikrimcha, bunday qilish,

o'sha kunlik ishni rejalashtirishga, boshqa xodimlar orasida hurmatingiz oshishiga yordam beradi. Bugun juda muhim kun - anchadan buyon ishga kirmoqchi bo'lgan kompaniyadan javob chiqadi. Yo'lda kelar ekanman, yuragimning "duk- duk" urishini eshita boshladim. Hayajon, xavotir va xomushlik boshimni ancha egib qo'ygan edi.

Chamasi soat 15:00 larda telefonimga elektron xat keldi, unda ishga qabul qilinganligim yozilgan edi. Tanamni bir necha soniyalarga sezmay qoldim va ko'zimdan to'xtamasdan yosh chiqardi. Albatta, bu quvonch yoshlari edi. Odam bitta ish topganiga ham yig'laydimi deb hayron bo'layotganingizni bilaman.

Ish topishim menga juda ko'p eshiklarni ochdi. Yaxshi oylik, ishchi vizasi, erkinlik va eng ichki xotirjamlik. Ish topganim uchun keraklisi emas, o'sha sizga aytgan Xitoy devorining boshqa tomoniga narvonsiz oshib tushganimdan yig'lardim...





10MASLAHAT

Bu 10 maslahat hozirgacha men yo'l qo'ygan xatolar va tajribalardan kelib chiqqan holda tuzishga harakat qildim. Bular sizning yuksalishingiz uchun oz bo'lsa-da xizmat qiladi degan umiddaman.....



1.Oson yo'l qidirmang qidirmang

Norvegiya hukumati menga viza bermaslikka garorqilgan kun hali ham esimda. Xuddi birov ustimdan muzdek suv quyib yuborgandek edi. Ancha o'zimga kela olmay yurdim. Nega deysizmi? Norvegiya kelishim osonlikcha bo'lib qolgani yo'q edi.

Bu yerga kelishim uchun juda ham ko'p to'siqlarni bosib o'tganman. Bir narsaga yoki insonga osonlikcha erishgan paytingizni eslab ko'ring. Bunday voqealarni yoki eslolmaysiz, yoki bir yomon xotira sifatida qolib ketgan. Bir narsaga osonlikcha erishmoqchi bo'lgan odamni xuddi har kuni lotoreyadan omadim kelib qolarmikin deydigan odamga o'xshataman. Menga ishonmasangiz, hech lotoreyadan katta yutuq chiqib, boy bo'lib ketgan odamni bilasizmi. Menimcha, yo'q. Bu maslahatni berishimga eng katta sabablardan biri - menga oxirgi yillar davomida murojaat qilgan yoshlarning savollaridir. "Qanday qilib Norvegiya/ Yaponiyaga oson borsa bo'ladi?", "Ingliz tilini oson o'rganish yo'li bormi?", "Internetdan oson pul topish yo'lini o'rgata olasizmi?", "O'zbekistondan ketishim uchun eng oson viza oladigan davlat qaysi?" va shu kabi savollar.

Bu savollardagi bir xillik shundaki, barchasida "oson" so'zi ishlatilgan. Tepadagi lotereya haqidagi savolimni o'zgartirsam. Qaysi muvaffaqiyatli insonni bir narsaga "oson"likcha erishganini eshitgansiz. Hech qaysi! Chunki har bir muvaffaqiyat orqasida katta mehnat, uyqusiz tunlar,

tinimsiz qiyinchilik va tunganmas tushkunliklar yotadi. Men o'zimni muvaffaqiyatli inson deb hisoblamayman, lekin hozirgacha nimagaki erishgan bo'lsam, erishishimdan 100 marotabalah yiqilganman. Pastdagi rasmda "iceberg"ni misol qilib keltirganman. Juda ham ko'pchilik uning ustki qismini ko'radi, lekin uning pastki qismi esa juda chuqur va uni yagona o'sha insongina seza oladi.



2. "Sen menga do'stlaringni ko'rsat, men senga kelajagingni ko'rsataman"

Bu maqol juda ham ko'p insonlar tomonidan aytilgan va men buni "50 milliard dollarli kishi" laqabini olgan mashhur milliarder Dan Penadan eshitganman. Bu gapni ko'pchilik tan olgisi kelmaydi, sababi ba'zida o'sha bizning rivojlanishimizga xalaqit berayotganlar bu bizni yoshlikdan katta bo'lgan do'stlarimiz, sinfdoshlar, kursdoshlar va boshqalar. Ular bilan aloqani kamaytirish xuddi bizga katta Gaplarimning oddiy bir isboti sifatida, keeling, sizlar bilan bir yaxshi va bir yomon voqeani ulashsam. yo'qotishdek tuyulishi mumkin.

Voqea #1

Yaponiyaga men bilan bir paytda o'qishga borgan bir do'stim bor edi. Hamma unga havas bilan qarardi. Ingliz tilini zo'r bilar, universitet ishlarida faol va bir necha tillarda bermalol gaplasha olardi. Yoshi ulug'larimiz aytgandek, "Bola bo'lsa mana bunday bo'lsin". Shu do'stim xuddi o'ziga o'xshagan aqlli, ziyoli, taqvodor talabalar bilan bir uyda yashar edi. Har safar uyiga tashrif buyursam, uyidan baraka hidi kelardi. Nimadir bo'ldi-yu shu do'stim bilan xonadoshlari orasida gap qochdi va do'stim boshqa joyga ko'chib ketishga qaror qildi. Bir kuni universitetda ko'rishib qolib, U esa xonadoshlarini ismini aytishni boshladi. Quloqlarimga ishongim kelmasdi, sababi u bolalarni ko'pchilik yoqtirmas va har kuni ziyofat-maishatdan arimaydiganlardan edi. Jahlim chiqib bu qarorini umuman qo'llab-quvvatlamasligimni aytdim, lekin do'stim menga u yerda vaqtinchalik ilojsizlikdan u bolalarning

maishatlariga umuman turishi va aralashmasligini aytdi. Men sodda uning gapiga laqqa ishonibman. Oradan chamasi 3 oylar o'tib, do'stimdan bir narsa olganí borib uy eshigini taqillatsam boshqa odam ochdi. Eshikdan to'g'ri qaraganda bolaxonani ko'rish mumkin edi. Xuddi o'sha yerda do'stim bir qo'lida pivo, boshqa qo'lida sigaret bilan o'tirardi. voqeadan hech qancha do'stim universitetda ko'rinmay qoldi. Yaxshilab surishtirsam o'qishga kontrakt puli to'lolmay boshqa joyga ko'chib ketganini aytishdi. Yana kim bilan ketibdi deng? Xuddi o'sha xonadoshlari bilan.

Voqea

#2

O'qishni tamomlaganimdan so'ng o'z soham bo'yicha juda ko'p joylarga murojaat qildim. Va nihoyat bir kompaniyadan suhbatga chariqishdi. Suhbat muvaffaqiyatli o'tdi. Shundan so'ng meni sinab ko'rish uchun bir "business case"ni yechib berishimni so'rab 5 kun muhlat berishdi. 4 kun tinimsiz shu ishni ustida ishladim va bir ajoyib prezentatsiya tayyorladim. Shu kuni tasodifan Bekzod akam bilan ko'rishib qoldim va maqtanib qilgan ishimni ko'rsatdim. Bekzod akamni yuzida menikidek tabassumni ko'rmadim, demak, nimadir yoqmagan. Bekzod akam xuddi oson ishdek "prezentatsiyangizni video shaklida yasab jo'nating" dedi. Ishni jo'natishimga 24 soatdan kam vaqt qolgan, bugungi kun esa deyarli tugagan edi va buni unga tushuntirishga harakat qildim. Bekzod xuddi oson akam yana sovuqqonlik bilan "Ish kerak bo'lsa, shu ishni qilasiz, kerak bo'lmasa, o'zingiz bilasiz" dedi. Shu payt Bekzodakam ko'zimgaxuddi azroildek ko'rinibketdi. Tishimni-tishimga qo'yib uyga qaytdimda, kamera va boshqa jihozlarimni video olish uchun moslay boshladim. Kechqurun bilan uxlamasdan

video tayyorladim va ertalabda ishimni elektron pochta orqali yubordim.

Oradan 2 kun o'tib ishga kirganligim to'g'risida xabar oldim "Sen menga do'stingni ko'rsat, men senga kelajagingni aytib beraman".



3. "Ertalabki 5 klubi"ga a'zo bo'ling..

Yaqinda Robin Sharmaning "The 5 am club" ya'ni "Ertalabki 5 klubi" nomli kitobini eshitib tugatdim. Robin Sharma bu kitobida tongni erta qarshilashning juda ham ko'p foydali tomonlari haqida gapirib bergan. Harbiy maktabimda erta turishni yoqtirmas edim, lekin har kunimiz qandaydir barakali o'tar edi. Robin Sharma ham o'z kitobida hozirda odamlar ish, oila bilan bo'lib o'zi uchun vagt ajratmay qo'yganligi haqida yozgan. Inson o'zi uchun ajrata oladigan vaqtlarning eng yaxshisi bu erta tong. Men uchun erta tongni qarshilash kundalik odatlarimdan biriga aylanib qolgan desam adashmagan bo'laman. Kunimni ertalab 5:30da bir chashka qavha va suv bilan boshlayman. Qahvadan so'ng to'g'ri fitnes klubga qarab yo'l olaman. Chunki men uchun sog'ligim hamma narsadan ustun turadi. Agar sog'lom bo'lsam, sog'lom fikrlay olaman, sog'lom ishlay olaman va kelajakda sog'lom farzandlar tug'iladi. Qisqa qilib aytganda, tongimni barvaqt qarshilagan kunim juda barakali o'tadi va o'zimni juda tetik his qilaman. Albatta, kech turishga odatlangan insonga barvaqt uyg'onish muammo bo'lishi mumkin. Lekin buning uddasidan asta- sekinlik bilan chiqsa bo'ladi. Masalan, har kuni 9:00 da turishga odatlangan bo'lsangiz, keyingi kuni 8:55 da, undan keyin 8:50, shunday qilib siz ko'zlagan natijaga kichik urinishlar orqali erishsa bo'ladi. Agar



atrofingizda fitnes klub bo'lmasa, oddiygina yugurish yoki tana mashqlarini bajarishning o'zi ham kifoya..

4. Ingliz tiliga dunyo eshiklarini ochadigan “kalit” sifatida qarang

Ingliz tili dunyo tili maqomini olganiga ham mana ancha yillar bo'ldi. Lekin bu tilni qanchalik muhimligini sezmayotgan yoshlar oramizda talaygina. Sezgan taqdirda ham ingliz tilini faqatgina o'qishga kirib olish, IELTS (xalqaro ingliz tili imtihoni)dan vuqori baho olish yoki shunga o'xshagan sayoz maqsadlarda o'rganish odat tusiga kirib qoldi. Tasavvur qiling, qo'lingizga bir kalit tushdi va shu kalit bilan xohlagan eshigingizni ochib kirishingiz mumkin. Men ingliz odamda xuddi shu kalitni har kuni ko'raman. Hozirda chiqayotgan oxirgi yangiliklardan tortib, mashhur kitoblargacha ingliz tilida yozilgan. Agar shu ma'lumotlardan birinchi bo'lib xabar topishni xohlasangiz, demak, ingliz boshlang. qoldingiz.

Samoa tilini bilmasangiz ham ingliz tilini bilan ko'p ishingizni bitirsangiz bo'ladi. tilini mukammal biladigan tilini o'rganishni Samoa orollariga Aytaylik, borib Ingliz tilini bilish sizga o'zingizga nisbatan katta ishonch beradi va xohlagan mamlakatingiz eshiklarini shu til bilan ochib kirishingiz mumkin.



5. Yashayotgan joyingizni mahalliy tilini o'rganing

Tepada aytib bergan voqealarim menga va sizga juda katta o'rnak bo'ladi degan umiddaman Yaponiyada yashab til bilmagan paytlarim idish. tovoq yuvishdan boshqa ishga olishmas edi. Qiynalib vapon tilini mukammal o'zlashtirganimdan so'ng tarjimon bo'lib ofis ishida ishlaganman. Mahalliy tilni bilishim nafaqat menga yaxshi ish, balki yapon madaniyati va insonlariga yaqinlikni berdi. Norvegiyaga kelgan paytim hamma ingliz tilini yaxshi biladi, men norveg tilini o'rganishim shart emas deb, juda katta xatoga yo'l qo'ydim.

Agar Norvegiyaga kelishim bilanoq norveg tilini birinchi o'ringa qo'yib o'rganganimda edi, "Nespresso" magazinida kofe tashuvchi yoki barda bartender bo'lib emas, balkim ofisda kompyuter to'g'risida o'z soham bo'yicha tajriba o'tayotgan bo'lar edim. Hozirgi ishlayotgan joyimda ham yaxshi bir lavozimni norveg tilini bilmaganligim uchun boshqa odam olib ketdi. Hozirda bu tilni mukammal o'rganishni boshladim. Buni ko'rgan ishxonamdagilar menga nisbatan hurmati juda ham oshmoqda va o'zimni ularni davrasida sekin-asta erkin sezishni boshladim. Qaysi davlatga bormang, birinchi davlatning mahalliy tilini o'rganishdan boshlang. Mana, men aytdi deysiz, do'stlaringiz 4-5 yilda erishadigan natijaga siz o'sha 1-2 yilda erishasiz.



6. Qonun bilan o'ynashmang!..

Yuqorida aytib bergan shaxsiy voqealarimdan (Norvegiyadan ketishim va o'g'irlik voqeasi) o'z xulosangizni chiqardingiz degan Yaponiyada o'qib yurgan kezlrim ko'chada urushib ketganlar talaygina. Birgina noto'g'ri bosilgan qadam butun yillar davomidagi qiyinchiliklarni bir zumda yuvib ketishi hech narsa emas ekan.

Yaponiyadan ketibdeport bo'lib Norvegiyaga kelgan vaqtim bir do'stim "Bu yerda hech kimga qo'l ko'tarma, hammasini gap bilan hal qilishga harakat qil. Chunki bu yerga osonlikcha kelganing yo'q va shuni jahling tufayli yo'qotma" deb aytgan. Shu-shu qonunlarga doim rioya qilib, hujjatlarimni joyida olib yurishga odatlanganman.

7. Sabrli bo'ling!...

Robin Sharma "The 5 am club" kitobidashunday deydi: "Har qanday o'zgarish boshida qiyin, ortasida chalkash va oxirida chiroyli". Juda ham ko'pchiligimiz o'zgarishlardan qo'rqamiz, sababi o'zgarishlar bizdan katta mehnat va iroda talab qiladi. Shuning uchun juda ham ko'pchiligimiz o'z "komfort zona"mizdan



uzoq yillar davomida chiqolmay qolib ketamiz. O'zbekistonga ishlarim Norvegiyadan yurishmay qaytim kelgan paytim hayotimning eng quyi pog'onasida edim desam adashmagan bo'laman. Ahmoqligimni deb ich-etimni yeb yursam ham bo'lar edi, lekin uning o'rniga buni hayotimdagi yana bir "chellenj" sifatida qabul qildim. Kunu tun shu muammoni yechish uchun qo'limdan kelgan barcha narsani ishga soldim. Oson bo'lmadi, lekin bu muammoni hal qilishni uddasidan chiqdim. Hozir bu



kitobni o'qiyotgan paytingiz, ishingiz yurishmay tushkunlikda yoki hammasi zo'r ketayotgan bo'lishi mumkin. Agar tushkunlikda bo'lsangiz, tushkunlikka tushish sabablarini astoydil o'rganib chiqing va uni qanday hal qilish strategiyasini o'ylab ko'ring. Agar hammasi zo'r ketayotgan bo'lsa, kelajakda uchraydigan "chellenj"larga tayyor turing. Har qanday muammo bo'lmasin, buni sabr va mehnat bilan yengib o'tsa bo'ladi. Sabrli bo'ling!

8. Uyingizni tartibga keltiring

Mashhur yozuvchi, professor, va psixolog Jordan B. Petersonning "Hayot uchun 12 qonun" kitobining 6-qonunida "Dunyoni o'zgartirishdan oldin, o'z uyingni o'zgartir" deydi. Harbiy maktabda o'qib yurgan kezlarim "Nega endi kunimizni o'z joyimizni to'g'irlab, butun boshli maktabni tozalashdan boshlashimiz kerak?" degan savolni ko'p berar edim.

Shunda komandirim "O'z joyingizni to'g'irlash bu sizga erishgan birinchi yutug'ingiz bo'ladi. Bu esa kun davomida boshqa yutuqlarga erishish uchun ruhiyat bag'ishlaydi. Va eng asosiysi toza joyda doim baraka bo'ladi" degan edi. Mana, oradan qariyb 11 yil o'tgan bo'lsa-da, haligacha kunimni o'z xonamni tozalashdan boshlayman.

9. Ko'proq kitob o'qing yoki eshiting

Statistika ma'lumotlariga qaraganda, kitob o'quvchilar soniga qaraganda kitob o'qimaydiganlar soni juda ham ko'p. Ayniqsa, hozirgi kunda bu farqlar yanada kattalashgan. Yoshligimda o'qituvchim "Kitob o'qi! O'qimasang odam bo'lmaysan" degan buyrug mazmundagi gaplar bilan kitob o'qitishga majbur qilar edi. O'z-o'zidan kitobga bo'lgan munosabatim salbiylashib ketgandi. Universitetda o'qigan paytimda YouTube tarmog'idabirajoyibinsonning kitobhaqidagi videosini ko'rib qoldim va uning so'zlari kitobga bo'lgan muhabbatimni qaytadan tikladi: "Tasavvur giling, bir inson butun umr ko'rgan-kechirganlarini bir kitob shaklida chiqardi. Aytaylik, shu inson hozir 50 yoshda va bir kitobni o'qish uchun o'rtacha 4-5 kun vaqt ketadi. Bu degani siz 4-5 kun ichida bir insonning 50 yil umrini yashab qo'ydingiz. Ajoyib emasmi?". Xuddi shunday hozir o'qiyotgan "Maqsad" ham kitob, ham mening 26 yillik ko'rgan-kechirganlarim haqida. Xuddi shu kitobni o'qishga harakat qilgan bo'lsangiz 2 kunda tugatishingiz mumkin. Bu degani, mening 26 yil ko'rganlarimni siz 2 kunda o'qib qo'ydingiz va o'zingizgakeraklima'lumotlarni oldingiz. Mana, rivojlanishingizga qilamanki, kitob o'qishning qanday. shaxsiy Umid yoki ta'siri

kelajakda o'quvchilaringiz farzandlaringizga xuddi shu zaminda tushuntirib, kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini uyg'otasiz. Kitob o'qishga ham alohida kerak, ya'ni kuningizning bir vaqtini tanlab, tinch va sokin joyda o'qish. Lekin har doim ham bu munosabatvaqt bizda bo'lavermaydi. Xuddi shunday menda ham. Talabalik vaqtlarimda kitob o'qish uchun vaqtim juda ko'p bo'lar edi, lekin hozir ish, oila va go'shimcha biznes bilan kitob o'qishga vaqt sarflay olmayabman. Bunday vaziyatda eng yaxshi usul audiokitoblar. Oxirgi 10 yillikda audiokitob bu eshituvchilar soni tubdan oshib ketdi, sababi audiokitoblar insonlarga juda katta qulaylik yaratdi. Buni isbotlash uchun bir kichik tajriba o'tkazib ko'rdim. 11 soatlik Robin Sharmaning "The 5 am club" audiokitobini Audible dan sotib oldim. Audiokitobni 3 kun davomida faqatgina ko'chada, ishga ketayotgan vaqtimda yoki biror joyga ketayotgan vaqtimda eshitdim. 3 kundan keyin tekshirsam, 4,5 soatda kitobni eshitib qo'yibman. Ba'zida ko'chada telefon o'ynab yoki oddiygina hech narsa qilmasdan juda ham ko'p vaqt yo'qotib qo'yar ekanmiz. Vaqt esa hech qachon qaytib kelmaydi, shuning uchun vaqtdan unumli foydalanishni tavsiya qilar edim.



10. Qariganda afsuslanmang

Mashhur tadbirkor va motivator Gary Vaynerchukning bir ajoyib gapi bor: "Qariganda afsuslanishni xohlamasang, qarilar bilan juda ham ko'p suhbat qur". Ba'zida yoshi ulug' insonlardan "Qaniydi yoshligimga qaytsam-u, haydovchi bo'lmasdan musiqa bilan qattiq shug'ullangan bo'lardim yoki farzandlarimga ko'proq vaqt ajratardim yoki o'zim yoqtirgan ishni qilar edim" deyishadi. Bularning hammasi bizning tilda aytganda "afsuslar"dir. va Kimdir hayotdagi o'z qiziqishini erta anglab yetadi va butun umr shuning ustida ishlaydi. Kimdir uchun esa o'z qiziqishini topish uchun birmuncha vaqt kerak bo'ladi. Shaxsiy fikrimcha, o'z qiziqishlarini hali topmagan inson o'z qiziqishlarini erta topgan insonga qarab o'ziga baho bermasligi kerak.

Agar bunday qiladigan bo'lsa, tushkunlikka tushib harakatdan to'xtab qolishi hech gap emas. Xo'sh, inson o'z qiziqishini qanday topadi? Inson o'z qiziqishini topish uchun turli xil joylarda o'zini sinab ko'rishi kerak. Sinab ko'rmasdan oldin "mendan yaxshi boshlovchi, jurnalist, ashulachi chiqmasa kerak" demasligi darkor. Men video bloggerlikni juda ham oldin boshlashim kerak edi, lekin "men buni eplay olamasam kerak" degan fikr doim meni to'xtatib qolar edi. Bir kuni shartta kameramni qo'ydimda, "nima bo'lsa bo'ldi" deb videolar joylashni boshladim. Buni qarangki, ozmi-ko'pmi muvaffaqiyatli chiqdi. Lekin har bir qilgan ishim ham muvaffaqiyatli chiqmagan. Masalan, tepada aytib bergan shaxsiy brendim "ZBEK".

Eng asosiysi, qariganimda "shaxsiy brendimni boshlasam bo'lar edi" deb afsuslanmayman. O'z qiziqishingizni topishingiz

mobaynida juda ko'p xatoliklarga yoki qiyinchiliklarga dush
elishingiz mumkin. Yozuvchi Rachel Eilenening bir api bor: "Og'riq
bu vaqtincha, lekin afsus bu abadiy".



XULOSA O'RNIDA

Bu kitobni yozish men uchun juda qiyin kechdi. Ba'zida "Nega endi, men hayotimda bo'lgan voqealarni hamma bilan ulashishim kerak?", "Meni kuchsiz deb o'ylashsa-chi?", "Ota-onam bilib qolsa, nima deyishadi?", "Atrofimdagilar men haqimda qanday o'ylaydi?", "YouTubeda kim degan odam bo'laman. axir meni hamma aqlli, ziyoli va tirishqoq deb o'ylashadi, bu kitobdan keyinchi...?" degan fikrlar bilan yozishni birmuncha vaqtga to'xtatib qo'ydim. Lekin talabalik davrimda bo'lgan voqealar faqatgina menga tegishli emas. Bunday voqealar katta yoki kichik shaklda barcha musofirlikda yurgan yurtdoshlarimiz boshiga tushgan va tushmoqda. Do'stlarim "Shohboz, kimga maza degan gaplarini eshitgan paytimda, na kulishni, na yig'lashni bilmay qolaman. Nega deysizmi? Sababi, ko'pchilik musofirlik hayotini internetda joylagan xursand va hayotning yorqin tasviri aks etgan suratlarga yoki baland binolarga qarab baholaydi. senga maza", Bu kitobimda internetdagi "kulib" tushgan suratlarning ortidagi hayotni ochib berishga harakat qildim. Berilgan voqealar orqali mening muammolarim boshqalarning muammolaridan kattaroq, dardliroq demoqchi emas. Boshi berk ko'chaga kirib qolib, dardini kimga aytishni bilmay yurgan yoshlarimiz juda ham ko'p. Umid qilamanki, bu kitob, o'sha sotsial tarmoqlardagi bejirim suratlarga qarab, yurtidan turli sabablar bilan xorijga chiqib ketayotgan yoshlar uchun tanganing boshqa tomonini ham ko'rsatib bera oldi.

Hozirda yaxshi lavozimda ishlayman, ishim o'zimga juda ham yoqadi. Pullarimni to'plab, o'qish pullarimni ham to'lab qo'ydim. Bu kitobni yozishim meni o'sha bo'lib o'tgan voqealarni yana bir bor yodga olishga. va hayotda tinimsiz izlanishimga harakat qilishim uchun madadkor bo'ldi, desam yangilshmagan bo'laman. Kitobni quyidagi tavsiyalarim bilan yakunlashni lozim topdim:


1. Atrofingizda halol, olijanob insonlar bo'lmas ekan hech qachon maqsadingizga erisha olmaysiz yoki erishish uchun juda ham uzoq muddat kutishingizga to'g'ri uzoq keladi.

2. Prioritetlaringizni bilib oling. Hayotingizda hamma narsadan voz kechib, faqat ilmga beriling demoqchi emasman. Oddiygina hozirgi holatingizda sizga eng muhim narsa nima ekanligini anglab yetsangiz bas.

2. Inson nimalarga qodir ekanligini sizga eslatmasam ham, o'zingiz juda yaxshi bilasiz. Hayot har doim ham bir maromda ketavermaydi. Hayot juda ham shafqatsiz. Qanchalik kuchli bo'lmang, bir zarba bilan sizni chirpirak qilib, yiqitishga kuchi etadi. Hatto Mayk Taysonning zarbasi ham hayot zarbasi oldida hech narsa emas. Lekin gap zarbaning kuchli yoki kuchsiz ekanligida emas. Gapsizning qanchalik shu zarbani qabul qilib, yana o'rningizdan turib davom etishingizda.

Kitobni o'qib bo'lgan bo'lsangiz, endi turingda, zarbalarni qabul qilib, harakatda davom eting...



















Shohbozbek Dolimov Yorqinbek o'g'li 1994 yil 16-fevral kuni Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tavallud topgan. Litseyni tamomlagach 2012 yil Yaponiyaning Beppu shahrida joylashgan Ritsumeikan Osiyo Tinchlik universitetiga grant asosida bakalavr bosqichini o'qish uchun jo'nab ketadi. 2016-yil Norvegiyaning Oslo shahrida joylashgan BI Norwegian Business Schooliga grant yutib olib magistraturani davom ettirish uchun jo'nab ketadi. Magistraturani muvaffaqiyatli tamomlab, hozirda Menejer Marketolog lavozimida ishlab kelmoqda.

"Maqsad kitobimni yozishimdan maqsad bu Yaponiya va Norvegiya mamlakatlarida ko'rgan qiyinchiliklarim va ularni qanday bartaraf etganim chet el mamlakatlariga noto'g'ri fikrda chiqib ketayotgan yoshlarni oldindan shu hayotga tayyorlash va yoshlarni o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish" deydi u.



«Credo Print» kitob fabrikasida chop etildi.
100053, Toshkent shahar,
Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.
Tel.: 71 234-44-01/05. www.credoprint.uz

ISBN 978-9943-5902-0-9



9 789943 590209